

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

**FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI KAFEDRASI**

**Filologiya fakulteti o'zbek tili yo'nalishi 449-guruh talabasi
Hamroqulova (Qodirova) Vasilaning**

BITIRUV – MALAKAVIY ISHI

MAVZU: Qit'a janri takomilida Alisher Navoiyning o'rni

Ilmiy rahbar:

H.Jo'rayev,

filologiya fanlari doktori

Rasmiy taqrizchi:

G. Oripova,

Farg'ona pedagogika kolleji ona tili va adabiyot o'qituvchisi

Farg'ona - 2016

R E J A :

K i r i s h

1 BOB. Lirikada shakl va mazmun

1-fasl. Qit'aning boshqa janrlar bilan munosabati.

2-fasl. Qit'aning janr imkoniyatlari.

II BOB. Mazmun va badiiyat

1-fasl. Mavzular ko'lami, g'oya va badiiyat.

2-fasl. Ijtimoiy-falsafiy qarashlar ifodasi.

X u l o s a.

K I R I SH

Ishning umumiy tavsifi. Xalqimiz uzoq asrlik boy madaniy va adabiy merosga ega. Xalq dahosi bilan yaratilgan ma'naviy boyliklarimiz avlodlar osha asrab-avaylab kelinmoqda. Ayni paytda bu mumtoz adabiyot namunalari har bir avlod tomonidan o'qib-o'rganilib, ularning yangi-yangi g'oyaviy-badiiy qirralari, asarlarning janr xususiyatlari, ifoda imkoniyatlari tadqiq va targ'ib etilmoqda. O'zbek adabiyotining ulug' namoyandalari o'z iste'dod va tafakkur mahsuli bo'lgan badiiy adabiyot namunalarining kelguvsi avlodlarga yetib borishini orzu qilganlar va bu umidlari amalga oshmog'i uchun sa'y-harakat qilganlar. O'zbek mumtoz she'riyati janr e'tibori bilan juda boy va xilma-xildir. Undagi janrlar faqat shakliy belgilari, paydo bo'lish tarixi, taraqqiyot tamoyili yoki mavzu xususiyatlari bilan emas, ifoda usullari, tili, obrazlar tizimi, poetik ruhi jihatidan ham bir-biridan ajralib turadi. Alisher Navoiy olam va odam haqidagi o'z fikr-mulohazalarini, orzu-istaklarini, falsafiy mushohadalarini Sharq she'riyatining barcha janrlarida yuksak badiiy ifoda eta olgan.

Tarixchi Xondamirning yozishicha: "She'rning bir qancha turi bor: qasida, g'azal, qit'a, ruboiy... Shoirarning bir xillari o'z qobiliyatlariga ko'ra bularning barcha turida she'r aytganlar va ba'zilar iqtidorlarining ozligidan bu turlarning ayrimlari ustida tajriba yurgizish bilan kifoyalanganlar. Oliy hazrat (ya'ni Navoiy)ning mahorati yuqorida bayon etilgan turlarning hammasida shunday darajada ediki, agar ilgari o'tgan shoirlar uning muborak zamonida bo'lsalar edi, so'zlash daftarini yig'ishtirib qo'yib, dunyo tevaragidan uning fazilat uyi ostonasiga qarab yugurar edilar".

Gap shundaki, biz shoir lirik merosini hisoblaganimizda ko'pincha uning rasmiy devonlaridagi she'rlari miqdoriga tayanamiz. Birgina "Xazoyin-ul maoniy" kulliyotida jamlangan devonlarda 2600 g'azal mavjud. Agar bu sanoqqa "Devoni Foniyy"dagi 554 g'azalni ham qo'shsak, shoir g'azallarining umumiy soni 3154 taga yetadi. Boshqa lirik janrlarda yaratilgan ijod namunalari ham miqdor jihatdan

salmoqli o'rin egallaydi. Ammo bobokalonimizning tarixga oid, ilmiy-filologik va boshqa turdagi asarlari tarkibida ham o'nlab she'rlar uchraydiki, ularni umumiy sanoqqa qo'shadigan bo'lsak, shoir merosining naqadar ulug'vor ekanligi ravshanlashadi. Shu bilan birga, shoir lirikasi tarkibidagi qit'alar miqdori haqida ham uzil-kesil to'xtamga kelingan emas.

Mavzuning dolzarbligi. Lirika - fikr va his-tuyg'ular sintezining teranlashgan formasi, deyishadi. Bu hol uning yakka, yolg'iz mohiyatlaridan teran falsafiy umumlashmalarga kelishida, ulug' o'tmishimizdan teran ma'naviy-axloqiy xulosalar chiqara olishida, bugungi voqeligimizdan kelajakka daxldor belgilarni ko'rishi va topa bilishida, ularni umumlashtira olishida namoyon bo'ladi. U, birinchi navbatda, insonning ma'naviy-ma'rifiy tasavvurlarini shakllantiradi. Insonning faqat aqliy quvvatigagina emas, uning ruhiy holatiga ham ta'sir etadi.

Bu haqda mavjud fikrlarni umumlashtirib, Yurtboshimiz I.A. Karimov shunday yozadi: "Insonni, uning ma'naviy olamini kashf etadigan yana bir qudratli vosita borki, u ham bo'lsa, so'z san'ati, badiiy adabiyotdir. Adabiyotning insonshunoslik, shoir va yozuvchilarni esa inson ruhining muhandislari, deb ta'riflanishi bejiz emas"¹.

Shoir badiiy ijod orqali insonning ichki olami, xarakteri, orzu-istaklari va tuyg'ularini ochib berar ekan, unda shu real borliqning ijtimoiy-siyosiy, falsafiy, ruhiy-ma'naviy qiyofasini ham tasvirlaydi.

Mana shu tasvirdan qalamga olinayotgan davrning ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy obrazi vujudga keladi. Bu lirik qahramon bo'lib, unga nisbatan, albatta shoir tuyg'ulari, munosabati va bahosi mavjud bo'ladi. Alisher Navoiy qit'alarida tarixiy haqiqatning betakror badiiy talqinlari, shoir yashagan zamon nafasi, davrning ijtimoiy muqammolari o'z ifodasini topgan. Shundan kelib chiqib baholansa, mavzuning dolzarbligi ayon bo'ladi.

Mavzuning o'rganilish darajasi. Badiiy ijod mahsulida tarix, zamon masalasi deyarli barcha ilmiy tadqiqotlarda tilga olinadi. Mumtoz ijodkorlar faoliyatiga bag'ishlangan ishlarda ham dastavval tarixiylik va zamonaviylik

¹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. T: - 2008 y. 136-bet .

xarakteri bilan bog'liq hollar tahlil etiladi. Shundan kelib chiqsak, qit'a janri uzoq zamonlardan beri olimlarning diqqatini o'ziga tortib keldi. Ye. E. Bertels, A. Mirzoev, A. Hayitmetov, A. Abdug'afurov, Yo. Ishoqov, R. Orzibekov va boshqa adabiyotshunoslar qit'a haqida o'z tadqiqotlarida, maxsus ilmiy maqolalarida to'xtalib o'tganlar. Ulug' shoir va mutafakkirning yaqin o'tmishda nisbatan kam o'rganilgan asarlari, jumladan, "Arbain" qit'alar to'plami bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari bugungi kunda ham izchil davom etmoqda. O'tgan asrning 90-yillarida, aniqrog'i, Istiqlol tufayli Navoiyning tasavvufga nisbatan munosabatini belgilashda va asarlarida aks etgan tasavvuf ta'limoti va diniy masalalar talqinida biror bir mafkuraning ta'siriga berilmagan yangicha va to'g'ri qarashlar paydo bo'la boshladi. Shu jihatdan adabiyotshunoslar I.Haqqul va S. Olimlarning risola hamda maqolalari alohida ajralib turadi. I.Haqqul kitoblarida Navoiy ijodidagi tariqat maqomoti, majoziy va haqiqiy ishq, Haq va xalq munosabati, fano, baqo, komil inson singari masalalar qatori "Arbain"dagi axloqiy-falsafiy mavzudagi qit'alarga doir ham ayrim fikrlar bildirilgan.

Olim badiiy adabiyotda islomiy ta'limotning o'rnini belgilashga, o'zbek tasavvuf she'riyatining shakllanishi va taraqqiyoti tahliliga bag'ishlangan tadqiqotlarida bu masalaga e'tibor qaratib, Navoiy lirikasida, xususan, uning g'azal va qit'alarida komil insonning obrazli tasvirlari berilganligini o'rinli qayd etadi.²

Shunday bo'lishiga qaramay, ulug' shoirning ba'zi muhim asarlari, jumladan, uning ijodida alohida o'rin tutuvchi mazkur asar Istiqlol davri va milliy mustaqillik mafkurasi asosida keng ko'lamli tadqiq etilishi lozim. Chunki Navoiy hayotining so'nggi yillarida yozilgan ushbu asar shoirning muhim falsafiy, ijtimoiy-siyosiy va axloqiy-ma'rifiy qarashlarini o'zida mujassam etgan adabiy manba sifatida ulug' mutafakkir ijodiga muayyan darajada yakun yasaydi. Bugina emas, ushbu asar o'zining yaratilish tarixi, janr va g'oyaviy-falsafiy xususiyatlari bilan faqat shoir ijodida emas, o'zbek mumtoz adabiyoti tarixida ham alohida o'rin

² Haqqulov I. Tasavvuf va she'riyat. Toshkent. 1991.

tutadi. Bu muammoning ilmiy-nazariy jihatdan yaxlit holda tekshirilishi tadqiqotimizning o'rganilganlik darajasini belgilaydi

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Lirikada tarix, zamon mavzularini badiiy-estetik ifodalashga doim katta e'tibor berib kelingan. Nafaqat she'riyat, balki ijodkor olami, uning o'ziga xos xususiyatlari, ijodiy faoliyati va adabiyotimiz rivojiga qo'shgan hissasi tadqiqotchi olimlar tomonidan ham ilmiy-nazariy jihatdan tekshirish doirasiga tortilgan. Lekin Alisher Navoiyning qit'alari asosidagi biz qo'l urgan mavzu shu tizim bo'yicha qilinayotgan ishlarga yangi mazmun qo'shadi.

Shoir qit'alarida tarix, zamon, inson mavzulari, ta'limiy-tarbiyaviy, g'oyaviy-falsafiy qarashlar ifodasi quyidagi vositalar orqali ochib beriladi:

- lirik obrazlar vositasida;
- janr xususiyatlari vositasida;
- peyzaj bilan bog'lash vositasida;
- ruhiyat vositasida;
- ziddiyatli tasvirlar vositasida;
- zamon vositasida;
- makon vositasida.

Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati. Lirikada, xususan, Alisher Navoiy qit'alarida tarixiylik hamda zamonaviylik mavzularining badiiy ifodalanish usullari, g'oya hamda falsafiy talqinlarni, badiiy-estetik xususiyatlarni tadqiq qilish mazkur tadqiqotning nazariy ahamiyatini belgilaydi.

Tadqiqot ob'ekti. Ulug' shoir va mutafakkir Alisher Navoiyning turli davrlarda turlicha nashrlarda e'lon qilingan ijod namunalari, unga zamondosh bo'lgan qalam ahllarining asarlaridan qiyosiy tahlil uchun olingan misollar tadqiqot ob'ekti bo'lib xizmat qildi. Lirikada an'ana muammolarini yoritishda o'zbek adabiyoti namoyandalari, xususan, shoirning zamondoshlari ijodiy namunalariga ham lozim bo'lgan o'rinlarda murojaat qilindi. Asosan, "Xazoyin-ul maoniy" kulliyoti, "Arbain" nomi bilan tartib berilgan qit'alar to'plami,

shoirning ilmiy, tarixiy, filologik asarlari tarkibida uchraydigan qit'alariga ham murojaat qilindi.

So'z mulkining sohibqironi, buyuk mutafakkir so'z ustasi, mumtoz adabiyotimizning cho'qqisi bo'lmish Alisher Navoiyning boy va o'lmas adabiy merosi necha asrlardan buyon muxlislarning, adabiyot muhiblarining sevimli ma'naviy mulkiga aylanib qolgan. Mumtoz adabiyotimiz taraqqiyotiga bemisl hissa qo'shgan ulug' bobokalonimizning muborak nomi jahon adabiyoti siymolari orasida ham munosib o'rniga ega. Shoirning mahorat qirralari, ijod sirlari bir necha asrlardan buyon tajriba maktabi bo'lib kelmoqda.

Sharq adabiyoti tarixida yuzlab shoirlar qit'a janrida qalam tebratganlari ma'lum. Ko'plab qalam sohiblari ushbu janrga qo'l urib, hayot voqeligi va ko'ngil kechinmalarini o'ziga xos yo'sinda badiiy talqin qilishga uringanlar. Ammo barcha qalam sohiblari ham qit'anavislikda, umuman, badiiy ijodda Navoiy ko'tarilgan yuksaklikka ko'tarila olmaganlar.

Alisher Navoiy qit'alarining umumbashariy g'oyalar tashishi, lirik obrazlarning mukammalligi, xarakterlarning hayotiyliigi shoirni o'z davri an'analariidan yuqori ko'targan xususiyatlardan biridir. Ulug' shoir ko'plab salafllari, zamondoshlaridan farqli ravishda, lirik obrazlarning tashqi portretiga oro beribgina qolmasdan, ularning ruhiy-ma'naviy olamiga ham yo'l ochdi. Bir so'z bilan aytganda, shoir yaratgan lirik obrazlar muallifning yuksak ideallarini tashish bilan birga, hayotga juda yaqin keldilar va she'riyat muxlislarining ko'ngil mulkiga aylandilar.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Qit'a janri uzoq zamonlardan beri olimlarning diqqatini o'ziga tortib keldi. Ye. E. Bertels, A. Mirzoev, A. Hayitmetov, A. Abdug'afurov, Yo. Ishoqov, R. Orzibekov va boshqa adabiyotshunoslar qit'a haqida o'z tadqiqotlarida, maxsus ilmiy maqolalarida to'xtalib o'tganlar. Ulug' shoir va mutafakkirning yaqin o'tmishda nisbatan kam o'rganilgan asarlari, jumladan, "Arbain" qit'alar to'plami bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari bugungi kunda ham izchil davom etmoqda. O'tgan asrning 90-yillarida, aniqrog'i, Istiqlol tufayli Navoiyning tasavvufga nisbatan munosabatini

belgilashda va asarlarida aks etgan tasavvuf ta'limoti va diniy masalalar talqinida biror bir mafkuraning ta'siriga berilmagan yangicha va to'g'ri qarashlar paydo bo'la boshladi. Shu jihatdan adabiyotshunoslar I.Haqqul va S. Olimlarning risola hamda maqolalari alohida ajralib turadi. I.Haqqul kitoblarida Navoiy ijodidagi tariqat maqomoti, majoziy va haqiqiy ishq, Haq va xalq munosabati, fano, baqo, komil inson singari masalalar qatori "Arbain"dagi axloqiy-falsafiy mavzudagi qit'alarga doir ham ayrim fikrlar bildirilgan.

Olim badiiy adabiyotda islomiy ta'limotning o'rnini belgilashga, o'zbek tasavvuf she'riyatining shakllanishi va taraqqiyoti tahliliga bag'ishlangan tadqiqotlarida bu masalaga e'tibor qaratib, Navoiy lirikasida, xususan, uning g'azal va qit'alarida komil insonning obrazli tasvirlari berilganligini o'rinli qayd etadi.³

Shunday bo'lishiga qaramay, ulug' shoirning ba'zi muhim asarlari, jumladan, uning ijodida alohida o'rin tutuvchi mazkur asar Istiqlol davri va milliy mustaqillik mafkurasida asosida keng ko'lamli tadqiq etilishi lozim. Chunki Navoiy hayotining so'nggi yillarida yozilgan ushbu asar shoirning muhim falsafiy, ijtimoiy-siyosiy va axloqiy-ma'rifiy qarashlarini o'zida mujassam etgan adabiy manba sifatida ulug' mutafakkir ijodiga muayyan darajada yakun yasaydi. Bugina emas, ushbu asar o'zining yaratilish tarixi, janr va g'oyaviy-falsafiy xususiyatlari bilan faqat shoir ijodida emas, o'zbek mumtoz adabiyoti tarixida ham alohida o'rin tutadi.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Har bir lirik janr voqelikni, inson fikr va his-tuyg'ularini o'z badiiy ifoda usullari hamda xarakteriga mos tarzda tasvirlaydi. Shuning uchun ularni mohiyat e'tibori bilan biri ikkinchisiga uncha o'xshash bo'lmagan so'z san'ati namunasi deyish mumkin. Sharq adabiyotida nazm bilan yozilgan hamma asarlar ham she'riyat namunasi hisoblanmagan. Masalan, Alisher Navoiy "Nasoyim-ul muhabbat" asarida Ahmad Yassaviyni "Turkiston ahlining qiblai duosidir" deya e'tirof etsada, uning nazmda yaratilgan "Hikmat"lari haqida fikr bildirmaydi. Yoki Ahmad

³ Haqqulov I. Tasavvuf va she'riyat. Toshkent. 1991.

Yugnakiyni “tili hikmatga go’yo ermish” desa-da, uning “Hibat-ul haqoyiq” dostoni yoki boshqa she’riy asarlariga munosabat bildirmaydi. Shuningdek, Abu Ali ibn Sino ham ulug’ hakim sifatida tilga olinadi, xolos.

Akademik Alibek Rustamov nazm bilan yozilgan har qanday asar ham badiiy adabiyot namunasi bo’lmasligini aytadi. Chunki she’r o’quvchiga estetik zavq berishi kerak. Aks holda u badiiy asar emas.⁴ Shu ma’noda ulug’ shoir va mutafakkir qit’a janri zimmasiga qanday badiiy-estetik vazifa yuklamasin – u pand-nasihat ruhida bo’ladimi, diniy-falsafiy qarashlar ifodasi bo’ladimi, bundan qat’iy nazar, yuksak badiiyat va estetik ta’sirchanlikni nazardan soqit qilmagan.

Shoir butun umrini el-yurt manfaati yo’lida xizmat qilishga sarflaganligi tarixiy manbalardan ma’lum. Ul zot bu yo’lda na sog’ligini, na moddiy boyliklarini ayamagan. Xalqqa nisbatan ana shu ehtirom, mehr boshqalar qonida ham jo’sh urishini istagan shoir o’z orzu-istaklarini shu tariqa qit’alar mag’ziga singdiradi. Izlanishlarimizdan maqsad va oldimizga qo’yilgan vazifalar shundan iborat:

- mazkur janrga berilgan tavsiflarni umumlashtirish;
- Navoiygacha bo’lgan ijodkorlarning qit’a janriga munosabatini belgilash;
- Ulug’ shoir va mutafakkirning qit’a janri takomilidagi hissasini ko’rsatish;
- Alisher Navoiyning ushbu janrga kiritgan yangiliklarini oydinlashtirish.

Bitiruv-malakaviy ishning joriylanishi. Shoir qit’alarining har biri ham mavzu, ham mazmun-mohiyat jihatdan o’ziga xos asar bo’lib, mazkur bitiruv-malakaviy ish muallifi tomonidan uning xususiyatlari haqida kurs ishi himoya qilingan, an’anaviy ilmiy-nazariy anjumanga ma’ruza tayyorlangan.

Ishning tuzilishi. Bitiruv malakaviy ishimiz an’anaviy kirish, to’rt faslni o’z ichiga oluvchi ikki asosiy bob, xulosa, slayd-ilovalar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro’yxatidan iborat.

⁴ Rustamov A. Navoiyning badiiy mahorati. Toshkent. 1979.

1 BOB. LIRIKADA SHAKL VA MAZMUN

1-fasl. Qit'aning boshqa janrlar bilan munosabati

Adabiyotshunoslikka oid mumtoz va zamonaviy manbalarda lirik janrlarning materiali, shakl va mazmun mutanosibligi, g'oyaviy-falsafiy niyat va uning badiiy ifodasi singari masalalar keng qamrovli ko'rib chiqilgan. Ularda bildirilgan fikr-mushohadalarda ayrim tafovut va farqlar ko'zga tashlansa-da, bir narsada umumiy xulosalar yagonaligini kuzatish mumkin. U ham bo'lsa, mazmun ifodasi o'ziga xos shakl - janrni taqozo etishidir. Darhaqiqat, har bir lirik janrning ikkinchi bir lirik janr bilan u yoki bu shaklda yaqinlik, aloqadorlik tomonlari bo'ladi. Avvalo, har bir lirik janrning faqat o'ziga xos poetik xususiyat va takomilini e'tiborga olish lozim. Zero, har bir lirik janr badiiy ijod olamida o'zining g'oyaviy-badiiy vazifasi bilan maydonga keladi. Janr kategoriyasi hayotiy zaruriyat, ma'naviy-ruhiy ehtiyoj bilan bog'liq bo'lib, ana shu ehtiyoj va zaruriyatning munosib shakl va mazmun uyg'unligi asosida ko'rinishidir. O'zbek, xususan, Sharq mumtoz adabiyoti namunalarini diniy-tasavvufiy tushunchalarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. O'tmish adiblari o'z asarlarini "Qur'on" oyatlari hamda hadislar mohiyati bilan boyitganlar, badiiy-estetik ta'sirchanligini oshirganlar, axloqiy-ma'naviy jihatlarni kuchaytirganlar. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixida ham din tarixi, payg'ambarlar hayoti, islom dunyosining allomalari hayotiga bag'ishlab maxsus asarlar yaratilgan. Nosiruddin Rabg'uziyning "Qisasi Rabg'uziy" asrini esga olsak, unda olam yaralishining diniy-falsafiy talqinlaridan tortib, islom dinining yuzaga kelishi, mashhur payg'ambarlar hayotidan ibratli lavhalar badiiy aks ettirilgan. Bu, o'z navbatida mazkur mvzuning keyingi davrlar adiblari tomonidan an'anaviy davom ettirilishi, turli janrlardagi asarlarda diniy-ilohiy qarashlarning badiiy ifodalanishiga kuchli turtki berdi.

Alisher Navoiyning bolalik pallasida yaratilgan hamda malikul kalom Lutfiyning tahsiniga sazovor bo'lgan ilk g'azallaridayoq *“Qut bir bodomu, yerim go'shai mehrob edi”* singari toat va ibodat, e'tiqod va ixlos bilan bog'liq misralar borki, bu shoirning juda erta diniy arkonlar va ahkomlar bilan puxta tanish ekanligidan dalolat beradi.

Ruboiylar jamlanmasi bo'lgan *“Nazm-ul javohir”* asari payg'ambarimizning jiyan va kuyovi, to'rt xalifalarning so'ngisi bo'lgan hazrat Alining hikmatli so'zlari asosida yaratilgan. *“Arbain”* deb nomlanuvchi, ya'ni qirq hadis mazmunini o'zida aks ettirgan qit'alardan iborat shoirning maxsus asari esa Rasulullohning mashhur hadislar asosida yaratilgan. Savol tug'iladi: *“Arbain”* bilan *“Nazm-ul javohir”* o'rtasida qanday farqli jihatlar bor?

Fikrimizcha, ular o'rtasidagi birinchi farq har ikki she'riy to'plamlarning janr xususiyatlari bilan bog'liq. Chunki *“Arbain”* lirikaning qit'a janri asosida yaratilgan bo'lsa, *“Nazm-ul javohir”* she'rlari ruboiy janriga mansubdir. Biz bu hol sababini anglashimiz uchun janrlarning xususiyatlariga diqqatni qaratamiz.

Bir shoir tomonidan bir xildagi mavzuning bir necha lirik janrlarda qalamga olinishini chog'ishtirish ham janrlar imkoniyatlari, o'ziga xos xususiyatlarini oydinlashtirishda qo'l keladi. Shu yo'l bilan ham har bir lirik janr tabiati, ifoda imkoniyati va xarakterini asoslash mumkin. Ayniqsa, daho so'z san'atkori Alisher Navoiyning keng ko'lamli va boy ijodiy merosidan bu masalani yoritish uchun istagancha misol keltirsa bo'ladi. E'tiborlisi shundaki, bitta mavzu va g'oyaning ifoda yo'suni turli janrlarda turli ko'rinishlarga – ba'zan lirik-falsafiy, ba'zan axloqiy-didaktik, gohida esa lirik xulosa tarziga ega bo'ladi. Biz avvalo, tanlagan misollarimizga asos bo'lgan hadisni keltiramiz:

Yo Ali! Maxlas (gunohlardan xalos bo'luvchi)da uch fazilat bor: boylikka dushmanlik va Haqni ulug'lash; o'z nafsiga dushmanlik; Xudo buyurganidan bo'lakni yod etgan so'zlarga dushman bo'lmoq.

Hadisdagi hirs va ta'maga, dunyoparastlikka qarshi kurashishga da'vat Alisher Navoiyning axloqiy-ma'naviy g'oyalariga mos keladi. Bu mavzu va g'oya shoirning nafaqat lirik, balki epik va boshqa turdagi asarlarida ham asosiy

masalalardan biridir. Endi ana shu mavzu va g'oyaning turli janrlardagi ifodasi talqiniga o'tamiz. Ma'lumki, lirik janrlar mazmun-mohiyatiga ko'ra bir-biridan ajralib turadi. Shunga asoslanilsa, g'azal va qit'a she'riyatning bir-biriga o'xshamaydigan ikki xil ko'rinishi ekanligi ravshanlashadi. Chunki o'tmishda qasida va g'azaldan "yulib olingan" teran mazmunli she'riy parchalar ilm va adabiyot ahli o'rtasida **"qit'a"** deb atalgan. Bundan tashqari, aniq hajmga ega bo'lmagan kichik lirik she'rlarga ham qit'a nomi berilgan.

Ikkinchidan, mumtoz shoirlarimiz ba'zan oldin yozilgan qit'alari asosida yangi g'azal va qasidalar yaratishgan. Masalan, Alisher Navoiy Husayn Boyqaroning taxtga chiqishi munosabati bilan "Hiloliya" qasidasini yaratgan. Qasidaga asos bo'lgan mazmun esa ungacha ham shoirning bir qancha ruboiy va qit'alarida yoritib berilgan.

Shoir g'azallaridan birida shunday yozadi:

Tori ummid aro harisni bil –

Rishtai ankabut ichinda magas.

"G'aroyib-us sig'ar" devoni. 235-g'azal.

Haris – ya'ni hirsga berilgan bandalar, nafs quli bo'lgan kimsalar obrazli tarzda o'rgimchak to'rlariga o'ralib qolgan hasharotga tashbeh etilmoqda. Faqat farq shundaki, hasharot yoki pashsha ongsizligi tufayli beixtiyor tuzoqqa tushadi. Mol-dunyo hirsidagi kishilar esa o'z ta'magirliklari orqasida ixtiyoriy ravishda hoyu havas girdobida qoladilar. Ko'rinadiki, g'azal janri tabiati ko'proq obrazlilikni, majozni, turli-tuman badiiy vositalarni o'rinli qo'llashni taqozo etadi. Axloqiy-pandnoma xarakteridagi masalalarni g'azalda to'g'ridan-to'g'ri ifodalab bo'lmaydi. Aks holda bunday asar she'rxonga estetik zavq bermaydi, uni zeriktiradi. Lirik g'oyaning ta'sirchanligini oshirish uchun g'azalda qo'yilayotgan masalani o'quvchi shuuriga obrazli yetkazish talab etiladi. Demakki, g'azal mazmun-mohiyatini to'g'ri anglash she'rxondan muayyan tayyorgarlikni talab qiladi. O'z-o'zidan, g'azal janridagi she'rlarni mutolaa qiluvchi she'rxonlar safi torayadi.

Endi xuddi shu mavzuning qit'a janrida aks etishini kuzatamiz. "G'aroyib-us sig'ar" devonidan o'rin olgan 22-qit'a quyidagicha nomlanadi: "Takalluf ahlining dunyog'a sheftalig'ida va dunyolikka fireftalig'ida": (*Mazmuni: Ayrim odamlarning dunyoga ko'ngil bog'lab, mol-davlatga hirs qo'yganligi haqida*).

Tanni zarbaft aylabon xiffatdin uchqon har taraf

Yo'q ajab gar bor esa dunyo matoi kom anga.

Ul chibinkim, ko'zga oltun yanglig' ishnor xil'ati

Ko'praki bilkim, najosat uzradir orom anga.

Ushbu qit'ada ham g'azaldagi mavzu saqlab qolingani. Navoiyning ijodiy ixtirolaridan bo'lmish qit'aga qo'yilgan sarlavha she'rxon diqqatini qo'yilayotgan masalaga yo'naltiradi. "Dunyo matoyi komi"ga aylangan kishilar usti yaltiroq, ammo turli iflosliklardan hazar qilmoqchi chivin – pashshalarga o'xshatilmoqda. Demak, qit'ada ko'p ma'nolilik bo'lmasligiga harakat qilinadi. Fikr ifodasi lo'ndalashadi.

"Nazm-ul javohir"dan o'rin olgan ruboiylardan birida ham bu masala quyidagicha qo'yiladi:

Hirs havosini nafs havosi bilgil,

Qo'ymoq ani nafs muddaosi bilgil.

Nafsingga alam hirs balosi bilgil,

Kechmoq mundin aning davosi bilgil.

Ruboiyda lirik qahramon ko'proq donishmand, hayotning achchiq-chuchugini totgan mutafakkir sifatida namoyon bo'lmoqda. Pandnoma ruhi kuchayib, olg'a surilayotgan g'oya ikkinchi shaxsga murojaat tarzida yetkazilmoqda. Ruboiyning ixcham shakli fikr va tuyg'ularning lo'nda hamda tushunarli ifodalanishini taqozo qilmoqda.

Mavzuga aloqador yana bir misol: tilni noo'rin gap-so'zlardan tiya bilish, til orqasidan birovga ozor bermaslik haqidagi o'gitlar, til tufayli boshga keluvchi kulfatlar haqidagi falsafiy-axloqiy qarashlar Sharq didaktik adabiyotida keng ishlangan mavzulardan biridir. Bunga aloqador hadislardan birida shunday mazmun ifodalangan:

Hazrat Ali dedi:

-Yo Rasululloh! Mo'minlik va eminlik nimada ekanini bilishni istayman.

Payg'ambar buyurdilar:

-Mo'minlarga na qo'ling va na tiling bilan ozor bermagin!

Ulug' shoir va mutafakkir lirik merosining har bir janrida bu mavzuga turli yo'sinda va qayta-qayta murojaat qilingan. Shoirning g'azallaridan birida shunday baytlar bor:

Pok lafz ayturg'a og'zing pok qilg'ilkim, hayfdur,

Yaxshi so'z borida so'rg'ay nuktai mazmum og'iz...

Ey Navoiy maxlas istar bo'lsang el til, og'zidin,

Nazmdin ham tilni tiyg'il, nasrdin ham yum og'iz.

“G'aroyib-us sig'ar” devoni. 220-g'azal.

Mazkur g'azalda pok lafz aytish e'tiqod darajasiga ko'tarilib, lirik qahramon turli ko'rgiliklardan xalos bo'lmoq uchun og'zini yummog'i – kerak paytda sukut saqlash ham fazilat ekanligi bayon etilmoqda. Axloqiy-ta'limiy g'oya lirik kechinma va tuyg'ular bilan hamohanglikda badiiy bo'yoqlarda ifodalanayotir. Endi shu mavzudagi qit'aga diqqatni qaratamiz:

“Oz so'z demakning manfaatida va ko'p so'zning mazarratida”(Mazmuni: *Kamgaplikning foydasi va ezmalikning zarari haqida*):

Navoiy, tiling asrag'il zinhor,

Desangkim, yemay dahr ishidin fusus.

Nazar qilki, o'q og'zi tilsiz uchun

Qilur tojvarlar bila dastbo's.

Necha tojvardur kesarlar boshin

Chu hangomsiz nag'ma tortar xurus.

“G'aroyib-us sig'ar” devoni. 21-qit'a.

Mazkur qit'ada didaktik xulosa avval aytilmoqda. Keyin kamon o'qi timsoli majoziy ma'noda keltirilib, bu o'q tili yo'q bo'lganligi uchun shohlar qo'lini “o'pishga” musharraf bo'lishi aytilmoqda. Birinchi obrazli misolda tilsizlikning foydali jihatlari ko'rsatilib, unga parallel ravishda bo'lar-bo'lmasga “Nag'ma” tortishi – qichqiraverishi natijasida boshi kesiladigan xo'roz fojeasi obrazli bayon etilmoqda. Qit'aga xalqning mashhur “Til yugurigi – boshga” maqoli mahorat bilan singdirib yuborilgan.

“Arbain hadis” asarida ham shu mavzuga aloqador qit'a bor. Ammo bu qit'a xarakteriga ko'ra diniy ruhda bo'lib, yuqoridagi hadis mazmunini aynan aks ettiradi:

Kim musulmonlig' aylasa da'vo,

Chin emas gar fido qilur jonlar.

Ul musulmondururki, solimdur

Tiliyu ilkidin musulmonlar.

Qit'a muallifining fikricha, turli diniy qoida va farzlarni bajarish bilan birga, insoniylikning oliy burchlari – qo'l va tilning pokligi, boshqalarga zarar yetkazmasligini odat qilish har bir musulmon uchun shartdir. Chunki inson insonga ko'proq tili va qo'li bilan yaxshilik yoki yomonlik yetkazadi. “Musulmon – musulmonga og'a-ini, unga xiyonat qilmaydi, uni aldamaydi” hadisi islom tarbiyasida do'stlik va birodarlik mezonlarini belgilashda muhim o'rin tutadi. Alisher Navoiy hadis mazmuni orqali insonning insonga nisbatan salomatligi, osoyishtaligi hamda zarar-ziyon ko'rishi til va qo'ldan ekanligini yaqqol ifoda etadi. Mazkur hadis shoir va mutafakkir ijodida turli ko'rinishlarda, turli janrlarda qayta-qayta tilga olinadi. Jumladan, “Mahbub-ul qulub” asarida ham tili pok, ko'ngli pok inson musulmondur. Musulmonlar boshqa bir musulmon kshining

tili va qo'ldan hech qanday zarar va ziyon ko'rmas ekanlar, osoyishta ekanlar, demak u musulmonlik da'vosini qilishga haqli, deb yozadi.

“Nazm-ul javohir”dagi ruboiylardan birida biz tahlil qilayotgan til bilan bog'liq mavzu quyidagicha lirik ifodalangan:

So'zdin kishikim g'amu balo hosilidur,

Har nuktada tili desa balo doxilidur.

Besirfa degan kishiga tili qotilidur,

Alqissaki, kimsaning balosi tilidur.

Demak, har bir lirik janr o'z ifoda usuli, bayon tarzi, g'oyalarning u yoki bu darajada aks ettirish imkoniyatlari bilan bir-biridan tafovut qiladi.

Biz yuqorida “Nazm-ul javohir” ruboiylari payg'ambarning hazrat Aliga nasihatlarini ruhida hadislar asosida yaratilganligini ta'kidlagan edik. O'ylashimizcha, Alisher Navoiy ham yoshlarga murojaat qilishda Rasululloh orzu-umidlari, da'vatlarini lirik ifodalashning ta'sirchan xususiyatlari sifatida ruboiy janrini tanlagan. “Arbain hadis” da esa shoir qit'a janridan foydalangan. Bu birinchidan, Jomiy an'analarini davom ettirish maqsadida amalga oshirilgan bo'lsa, ikkinchidan, “Arbain”– yoshidan va jinsidan qat'iy nazar, barcha musulmonlarga mo'ljallab yozilgan.

Qit'a janrining bosh xususiyati shundaki, u ko'p vaqt inson hayotida, ichki kechinmalarida yuz bergan eng teran va keskin holatlardagi mulohaza va fikrlarni quyma satrlarda gavdalandiradi. Bunda mundarijani yetakchiligi yaqqol sezilib turadi. Muallifning asosiy maqsadi bir fikrni ham tasviriy obrazlar vositasi bilan, ham mantiqiy dalillar bilan ochiq-ravshan tasdiqlash yoki rad etish, biron muhim masalani jamoatchilik ongiga yetkazish, biron voqea yoki hodisaning oxiriga yetgan nuqtasini ko'rsatish va unga o'z munosabatini, fikrini bildirishdir.

Qit'a haqidagi adabiyotshunoslikdagi qarashlarni umumlashtiradigan bo'lsak, bu lirik janrning boshqa janrlardan ajralib turadigan asosiy belgilari – hazaj bahrida yozilishi, *b-a-v-a* tarzida qofiyalanishi, o'ziga xos kompozitsion

tuzilishi (tugun, kulminatsiya, yechim), ko'pincha falsafiy, ijtimoiy, axloqiy, shuningdek, ishqiy-lirik mavzularda yozilishidir. Eron olimi Muhammad Javod qit'ani quyidagicha ta'riflaydi: "Biror narsaning parchasi lug'atda **qit'a** deb ataladi. Adabiy istilohda ikki baytdan kam bo'lmagan, o'ziga xos qofiya va vaznga ega bo'lgan she'rlarga qit'a deyiladi. Qit'ada yagona bir maqsad bayon etiladi va u mantiqan intihosiga yetaziladi. Qit'aning qofiya xususiyati unda birinchi bayt o'zaro qofiyalanmaslik bilan xarakterlanadi."

Xulosa qilib aytganda, qit'a g'azal, ruboiy singari mustaqil bir lirik janr hisoblanadi. Uning o'ziga xos poetik tabiati bor. Qit'a o'zining kompozitsion ko'rinishlari, obrazlar tizimi, til xususiyati va ifoda usullariga ega janrdir. U g'azalning bir parchasi sifatida yuzaga kelmagan. Qit'a Sharq adabiyotida g'azaldan ancha oldin paydo bo'lgan janr. Qit'a haqida, uning boshqa lirik janrlar bilan munosabati xususida yuqorida aytilgan fikrlarni umumlashtiradigan bo'lsak: ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-ma'rifiy va boshqa mavzularda yozilgan, o'ziga xos qofiya tarziga ega, ikki baytdan kam bo'lmagan, o'zida ma'lum bir poetik xususiyatlarni mujassamlashtirgan she'riy parchalargina qit'a deyiladi. Qit'ada shoirlar, asosan, turmush va real voqelik bilan bog'liq taassurotlar, ijtimoiy hayot, axloq masalalariga doir g'oyalarni lo'nda, sodda yo'llarda ifoda etganlar.

Qolaversa, qit'aning janr sifatida paydo bo'lishi, shakllanishi va taraqqiyoti arab adabiyoti bilangina emas, turkiy xalqlarning og'zaki ijodi zamini bilan bog'lanishi haqida qarashlar ham bor. Bundan xulosa qilish mumkinki, Alisher Navoiy o'z qit'alarini yaratishga kirishar ekan, bu janrning xalqimiz ruhiga yaqin ohanglari, lo'nda va ixchamligi uchun ham eng muhim axloqiy-pandnoma ruhidagi qarashlarini aynan mana shu janrda ifodalashga bel bog'lagan.

2-fasl. Qit'aning janr imkoniyatlari

Qit'a o'zbek mumtoz adabiyoti, umuman, Sharq so'z san'ati xazinasida katta o'rin tutuvchi lirik janrlardan biridir. Adabiyot nazariyasiga oid manbalarda ushbu janrga quyidagicha ta'rif va tavsiflar beriladi. **Qit'a** arabcha so'z bo'lib, bo'lak, qism, parcha ma'nolarini anglatadi. Jumladan, arabshunos X.K. Baranov qit'ani 1) parcha (adabiy asar); 2) kichik she'r; 3) musiqa asari deb izohlaydi. U adabiy terminologiyada mumtoz poeziyaning lirik janrlaridan biridir.⁵

Adabiyotshunos D. Quronov rahbarligida tayyorlanib, nashr etilgan "Adabiyotshunoslik lug'ati"da qit'a janriga ancha mukammal ta'rif berilgan. "**Qit'a** - (arabcha parcha, bo'lak, qism, bir kesim) Sharq mumtoz she'riyatida keng tarqalgan, ikki baytdan bir necha o'n baytgacha (ayrim manbalarda 19 baytgacha deb belgilangan) hajmdagi, juft misralari o'zaro qofiyalanib, toq misralari ochiq qoluvchi (b-a, v-a, g-a tarzida) she'r shakli; lirik janr. Garchi ko'proq ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-tarbiyaviy, falsafiy mavzularda yaratilsa-da, qit'a mazmun jihg'atdan ham, vazn jihatdan ham chegaralangan emas. Sharq adabiyotida nasriy asarlarda fikrni dalillash, xulosalash, izohlash kabi maqsadlarda qit'alar keltirilgan bo'lib, ular boshqa ijodkorlar olingan falsafiy jihatdan teran, didaktik xarakterga ega bo'lgan baytlar - parchalardir. YA'ni bu asarlarning mualliflari o'z maqsadlariga muvofiq baytlarni keltirarkan, avval "qit'a" so'zini qayd etishgan. Shunga ko'ra, ayrim manbalarda bildirilgan qit'a mustaqil asar sifatida yaratilishi ham, qasida yoki g'azal ichidan bir necha baytni ajratib olish natijasida paydo bo'lishi ham mumkin, qabilidagi fikrlarga qo'shilib bo'lmaydi. Bu holda qit'a so'zining lug'aviy va istilohiy ma'nolari farqlanmagan bo'ladi. Holbuki, istilohiy ma'noda qit'a muayyan shakl xususiyatlariga ega bo'lgan mustaqil she'riy janrni anglatadi, ikkinchi tomondan, muayyan janrga mansub asar (g'azal yoki qasida)dan

⁵ O'zbek klassik she'riyati janrlari. Toshkent. "O'qituvchi" nashriyoti. 1979. 152-bet.

ajratib oingan bir necha bayt yangi va mustaqil asar bo'lib qolmaydi, parcha parchaligicha qoladi...”⁶

Sharq poetikasida kichik hajmdagi qit'alar “ali ul-taloq qit'a”, to'rt baytdan ortiqlari esa “qit'ayi kabir” (katta qit'a) deb nomlangan. SHuni aytish lozimki, o'zbek adabiyotida umuman to'rt baytdan ortiq miqdordagi qit'alar siyrak uchraydi. Bu tabiiy holatdir. Chunki, birinchidan, qit'a o'zining xarakteri, poetik ruhi bilan ixchamlikka, konkretlikka daxldor janr hisoblanadi. Ikkinchidan, mumtoz adabiyotimiz namoyandalari shakl tanlashda mumkin qadar ixchamlikka intilganlar. Qisqa shaklda katta mazmunni sig'dirishni badiiy mahoratning muhim belgilaridan deb bilganlar.

Professor A. Hayitmetov qit'a janri haqida shunday to'xtamga kelgan: “ Qit'a fors-tojik va o'zbek adabiyotida qadim tarixga ega bo'lib, odatda biror voqea va hodisa munosabati bilan yaratilgan eksprompt (tayyorgarliksiz birdaniga aytilgan) she'rlarni eslatadi. Ular ko'pincha hayotiy yumor bilan sug'orilgan bo'lib, shoirning o'z davri turmushiga munosabatini ifodalaydi.”

Qit'alarda taxallus qo'llanishi shart bo'lmagan. Biroq ayrim qit'alarda, xususan 7 baytdan ortiq bo'lgan qit'alarda shoir taxallusi ham kelishi mumkin: Masalan Navoiyning:

Vajhi maosh uchun kishikim desa fikr etay,

Qismat rizosidin anga begonaliq kerak

deb boshlanuvchi 9 baytdan iborat qit'asi quyidagi taxallusli bayt bilan tamomlanadi:

Desang xalos o'lay borisidin Navoiydek,

Bexudlug'u may ichmaku devonalig' kerak.

Qit'alarda taxallus masalasini g'azaldagi singari bir qatorga qo'yib bo'lmaydi. Chunki bu janrda qit'a she'r boshida ham kelishi mumkin:

Ey Navoiy, kishiga berma ko'ngil,

Agar ul hurdir, yo'qsa pari.

⁶ Quronov D. va b. Adabiyotshunoslik lug'ati. Toshkent. “Akademnashr”. 2010. 381-382-betlar.

Vasli naf'i buki chekkaysen jon,

O'lturur lek firoqi zarari.

Har bir qit'aga sarlavha qo'yish ham Alisher Navoiyning ushbu janr takomiliga qo'shgan hissasi deyish mumkin. Masalan, shoir o'zining nopok va beburd ayrim erkaklardan pok va halol ayollarning ming bora afzalligi haqidagi qit'asiga shunday sarlavha qo'ygan:

“Pok ro' niso ta'rifidakim inson onsiz xolidur va oludavash rijolkim nursizlidan dajjoli bemisoldur:

Yuz tuman nopok erdin yaxshiroq

Pok xotunlar oyog'ining izi.

Lut o'g'lin ko'rkim soldi tiyralik,

Dinga nafs ilgida tab'i ojizi.

Dahr aro yoqti sayodat mash'alın

Pokravliqtin rasululloh qizi.”⁷

Kichik lirik janrlardan bo'lmish qit'a miqdor jihatdan ham Navoiy adabiy merosida salmoqli o'rin tutadi. Birgina “Xazoyin-ul maoniy”da shoirning 210 ta, “Devoni Foniyy”da 72 ta qit'a o'rin olgan. Bundan tashqari “Munshaot” (shoir maktublari majmuasi), “Holoti Pahlavon Muhammad”, “Xamsat-ul mutahayyirin” va boshqa asarlarida ham shoirning bir talay qit'alariga duch kelamiz. Navoiy qit'alari ikki baytdan tortib o'n bir baytgachadir. Ularning asosiy qismi esa ikki baytni tashkil etadi. Qofiyalanish tartibi *ba, va, ga* va *hokazo*. Ular orasida masnaviyni eslatuvchi *aa, bb, vv* tarzida qofiyalanganlari ham uchraydi. Masalan:

Kimki o'zluk imoratin buzdi,

Bo'ldi naqdi fano aning muzdi.

⁷ Alisher Navoiy. Xazoyin-ul maoniy. 738-bet.

***Ul imoratni buzmayin solik,
Bo'la olmas bu naqdga molik.***

Navoiyshunos Abduqodir Hayitmetov Alisher Navoiyning qit'a janri takomili va rivojidadagi mislsiz xizmatlariga to'xtalib, quyidagilarni yozadi:

“O'zbek adabiyoti tarixida she'rning bu qadimiy turidan hech kim Navoiychalik ko'p, Navoiychalik o'rinli va samarali foydalana olgan emas. Navoiy bu lirik janrni o'zbek adabiyotida har tomonlama prinsipial yuksaklikka, to'la huquqli mustaqil janr darajasiga ko'tardi...

Navoiy qit'alarining asosiy xususiyati shundaki, ular ko'proq an'anaviy mazmun va shakllar bilan emas, balki to'g'ridan to'g'ri hayot bilan, shoirning turmushi bilan bog'langan. Bu shoirning umri davomida yaratgan kundalik daftari, u yoki bu hodisalar munosabati bilan yaratgan badiha (ekspromt)lari majmuasi, hayotiy mushohadalari va xulosalaridir... U o'z qit'alarining bu xususiyatlarini yaxshi bilgani holda, ularni hikmat suvi bilan sug'orilgan bog' deb ta'riflab, ular haqida haqli ravishda shunday degan edi:

***Mundoq muqattaotki (qit'alar) men yig'misham, erur
Har biri hadiqai xirad aylar uchun farog'.
Mazmuni o'yla kishvare anglaki, sathini –
Hikmat suyidin aylamisham qit'a-qit'a bog'.⁸***

Alisher Navoiy, yuqorida aytganimizdek, qit'alarni yaratish jarayonida o'ziga xos va mustaqil yo'l tutdi. Qit'alar mag'ziga singdirilgan ayrim falsafiy hikmatlarning dunyoviy mohiyatini kuchaytirdi, ba'zi o'rinlarda esa ilohiy-falsafiy jihatlariga urg'u berdi. Shuningdek, turkiy tilda so'zlashuvchi qatlamning dunyoqarashi, xohish-mayllarini ham inobatga oldi. Shu tariqa Alisher Navoiyning har bir qit'asini erkin ijodiy taxayyul va tafakkur mahsuli sifatida baholash maqsadga muvofiqdir. Fikrimizning dalili sifatida misollar keltiramiz:

⁸ Hayitmetov A. Navoiy lirikasi. T.: “Fan” nashriyoti. 1961. 52-bet.

*Kimki mo''mindurur qachon chidag'ay,
Kim o'zi to'qu qo'shni bo'lg'ay och.
Anga dog'i kerak yetursa nasib,
Xonida gar ko'mochu xohi umoch.*

Yana bir xarakterli misol:

*Bu yozuq bas kishigakim, eldin
Har na so'z kim eshitti, fosh etti.
Tog' eshitganin der, gunohidin,
Go'iyo tengri oni tosh etti.*

Mazkur qit'alardan birinchisida faqat o'z g'ami bilan qayg'urmaslik, o'zgalarni ham o'ylash, mavjud oziq ovqatni beva-bechoralar bilan birga baham ko'rish ustida gap ketsa, ikkinchi she'riy parchada sirni saqlay bilish, chaqimchilik qilmaslik haqida mulohaza yuritiladi. Mohiyat e'tibori bilan shoir she'rlari bir-biriga yaqin turadi. Yoxud muddaoni o'quvchiga yetkazish asosiy maqsaddir. Biroq ana shu muddaoni o'quvchiga yetkazish yo'llari turlicha. Chunonchi, ikkinchi to'rtlikda bu holat ko'zga qabaribroq ko'rinadi. Alisher Navoiy aytilmoqchi bo'lgan fikrlarni, nasihat ta'sirini oshirish maqsadida ham tasvir vositalariga, ham ilohiyotga suyanadi. Hayotda shunday hodisa uchraydiki, toshdan qurilgan binolarda, tog'larning oldida aks-sado mavjud bo'ladi. Alisher Navoiy ana shu hodisadan mohirlik bilan foydalanadi. Uning talqinicha, tog' chaqimchiga o'xshaydi, eshitganini darrov takrorlaydi, shuning uchun ham Olloh uni jazolab, toshga aylantirdi. Ko'rinadiki, shoir tabiat hodisasini ilohiy tushunchalar bilan bog'lab, aytmoqchi bo'lgan fikrining ta'sir doirasini kengaytirgan. Bunday katta va kichik poetik detallarni yana keltirish mumkin. Bu esa Alisher Navoiy hayotdagi har bir voqea-hodisaga ijodkor nigohi bilan ham yondashganini tasdiqlaydi.

Alisher Navoiy ijodiy merosida ta'sirchan, ma'naviy-tarbiyaviy ahamiyatga molik qit'alar salmoqli o'rin tutadi. Bu mo''jaz she'rlar mavzu ko'lamini jihatdan ham rang-barangdir. Ularda ota-onani hurmat qilish, kamgaplik, kamtarinlik, saxiylik, umum manfaati yo'lida xizmat qilish, odob, ilmu hunarga intilish,

rostgo'ylik, to'g'rilik, do'stga sadoqat, totuvlik singari o'nlab yaxshi insoniy fazilatlar ulug'lanadi.

Shuningdek, baxillik, aldamchilik, chaqimchilik, manmanlik, kibru havo, mag'rurlik, ta'magirlik, yalqovlik, fahsh va buzuqlik, mol-dunyo va mansabga hirs qo'yish, birovga qilingan yaxshilikni ta'na qilish, ochko'zlik kabi komil inson uchun yot bo'lgan illatlar ayovsiz qoralanadi. Sanab o'tilgan masalalarning o'ziyoq Navoiy qit'olari qamrab olgan mavzu va muammolar ko'lamining g'oyat kengligidan dalolat beradi.

Shoir qit'alarida zamonlar o'tishi bilan eskirmaydigan, aksincha har bir avlod tomonidan yangidan yangi tasdig'ini topib boradigan masalalar ham talaygina. Masalan, ona madhi har bir davr qalam sohiblari uchun o'lmas mavzulardan biridir. Navoiy qit'alarida ham ona madhiga alohida o'rin ajratilgan. Hadislarga tayangan holda yaratilgan qit'alardan birida yosh inson bunyodkori – ona yuksaklarga ko'tarib ulug'lanadi:

Onalarning oyog'i ostidadur

Ravzai jannatu jinon bog'i.

Ravza bog'i visoln istar esang,

Bo'l onaning ayog'i tufrog'i.

Ona – inson taqdirida bosh siymo. Chunki u o'z jismidan yangi inson yaratadi, uni yorug' dunyoga keltiradi, tarbiyalaydi, so'zlash, yurish, yashash, kurashishni o'rgatadi. Farzandini asrash uchun o'zi o'sha balolarga qalqon bo'ladi, ammo o'z zurriyodiga hamisha orom va omonlik tilaydi. Umuman, bu buyuk zot madhu maqtoviga so'z mulki boyliklari ozlik qiladi. Alisher Navoiy boshqa lirik janrdagi asarlarida bo'lganidek, qit'alarida ham onaizorlar madhi uchun alohida o'rin ajratganligining boisi shunda. Bu mavzu ulug' shoir va mutafakkirning boshqa lirik asarlarida, jumladan, “Nazmul javohir” deb ataluvchi ruboiylar to'plamida ham o'z aksini topgan:

Ista ato yo'lida jon fido qilmoq,

Qulluq anoga ham ulcha imkon qilmoq.

Zuhri abad istasang farovon qilmoq,

Bil oni ato-anog'a ehson qilmoq.

Shuningdek, maishiy hayot, oila osudaligi va farovonligi singari masalalar ham shoir qit'alarida o'zining ta'sirchan lirik ifodasini topgan. Masalan, ro'zg'or to'kinligi va oila osoyishtaligi uy bekasining yaxshi fazilatlariga bog'liq ekanligi quyidagi qit'ada ravshan badiiy ifodalangan: *"Uy ravnaqi muloyim hmzonu (rafiqa)dindur va ro'zg'or turfalig'i turfago' bonudin*

Uyda ravnaqdurur, agar kishiga

Yaxshi hamxona bo'lsa hamzonu.

Zeb ila turfa hargiz o'lmas uy,

Bo'lmasa anda turfa kadbonu.

Ulug' shoir va mutafakkir butun ijodiy merosida bo'lganidek, qit'alarida ham xotin-qizlar obraziga murojaat qilib, ularni olijanob inson, ona va rafiqa sifatida ko'rsatadi:

Yaxshi xotunlar safoi zuhdidin

Olam ichra gar yorug'lik bo'lsa fosh,

Yo'q ajab, chunkim arab alfozida

Istiloh ichra muannasdur quyosh.

(Mazmuni: Yaxshi xotinlarning sofliigi va pokligidan olamga nur yog'lsa hayratlanmagin, chunki arab grammatikasida quyosh ham ayol jinsi – jenskiy rod bilan ifodalanadi).

Boshqa bir qit'asida esa aqli raso xotinlar yaramas nopok erkaklardan yuz barobar ortiqligini uqtiradi:

Yuz tuman nopok erdin yaxshiroq

Pok xotinlar oyog'ining izi.

Navoiy qit'alarida va'daga vafo qilish, to'g'rilik, sir saqlay olish, ahdida ustuvorlik kabi xislatlar haqida ham juda foydali mulohazalar o'rtaga tashlanadi. Quyidagi misollarga e'tibor beramiz:

Kimki har kimga va'dae qildi –

Shart erur va'daga vafo qilmoq.

***Va'dakim qilding o'yladurkim dayn,
Farzdur qarzni ado qilmoq.***

Yoki yana bir misol:

***Qaysi majlisdakim eshitsang so'z,
Bilgil ul so'z sanga amonatdur.
Gar ani o'zga yerda naql etsang,
Ul amonatqa bu xiyonatdur.***

Alisher Navoiyning dunyodan yolg'iz yashab o'tganligi sababi zamondoshlarini ham qiziqtirgan, bugungi kunda ham turli munozaralarga sabab bo'lib kelayotir. Jumladan, "Boburnoma"da Navoiy haqida "O'g'ul va qiz va ahlu ayol yo'q, olamni tavre (g'alati) fard (yolg'iz) va jariyda (yakka) o'tkardi" deyiladi.⁹ Shoirning o'zi qit'alaridan birida shu masalaga oydinlik kiritgandek bo'ladi: *Fardlig' bobidakim, fardning agarchi harfi zavjdur, ammo barisi fardduru bu ma'nini bilgan ahli dard* (**Mazmuni:** Yakkalik haqidaki, umr yo'ldoshi bo'lmaganlarni yolg'iz deyishadi, ammo dard ahli hamma narsani tark etgan kishini yakka-yolg'iz hisoblaydi):

***Ey Navoiy, anglakim, xush olamedur fardliq,
Gar quyosh vaslin tilarsen, fard bo'l zarrotdin.***

***Ul emastur fardliqkim, juftdin fard o'lg'asen,
Fard uldurkim, mujarrad bo'lg'ay ul har zotdin.***
(*"Favoyid-ul kibar"* devoni, 8-qit'a).

Ko'rinadiki, shoir qit'alari tarjimai hol xarakteriga ega ekanligi bilan ham boshqa so'z san'atkorlarining shu janrdagi asarlaridan farqlanib turadi.

Qit'alarda shaxs kamolotiga tegishli pandlar bilan birga katta ijtimoiy masalalarga taalluqli fikr-mulohazalar ham o'rtaga tashlanadi. O'z davrining va kelguvsi zamonlarning ulug' shoir va mutafakkiri bo'lmish Alisher Navoiy kitobxon ko'z o'ngida insonparvar g'oyalarni olg'a suruvchi, jamiyatni takomillashtirish uchun intiluvchi g'oyalari bilan namoyon bo'ladi.

⁹ Boburnoma. T.: 1989. 154-bet.

Inson va uning faoliyatiga baho berishda, uning el-ulus va jamyait uchun keltirgan manfaatini birinchi o'ringa qo'yiladi. Ana shu maqsad va muddao shoir qit'alarining mag'z-mohiyatini tashkil etadi.

Alisher Navoiyning lirik talqinida til va qo'lidan birovga ozor yetkazmaslik haqidagi diniy-axloqiy qarashlar quyidagicha aks-sado beradi:

Kim musulmonlig' aylasa da'vo,

Chin emas, gar fido qilur jonlar.

Ul musulmon dururki, solimdur

Tiliyu ilgidin musulmonlar.

Mazkur qit'ada ibratli fikrlar o'rta tashlanadi. Unda ta'kidlanishicha, musulmonlik da'vo qiluvchi kishilarning na qo'li(qilmishi), na tilidan boshqalarga ziyon-zaxmat yetmasligi kerak. Aks holda u o'zini qurbon qilsa ham musulmonlikka da'vo qila olmaydi.

Xalq aro yaxshiroq deding, kimdur?

Eshitib, ayla shubha raf' andin.

Yaxshiroq bil ani ulus arokim,

Yetsa ko'prak ulusqa naf' andin.

Shoir butun umrini el-yurt manfaati yo'lida xizmat qilishga sarflaganligi tarixiy manbalardan ma'lum. Ul zot bu yo'lda na sog'ligini, na moddiy boyliklarini ayamagan. Xalqqa nisbatan ana shu ehtirom, mehr boshqalar qonida ham jo'sh urishini istagan shoir o'z orzu-istaklarini shu tariqa misralar mag'ziga singdiradi.

Bunday g'oya shoirning boshqa asarlarida yanada rivojlantiriladi, mantiqan davom ettiriladi. "Nazmul javohir"da shunday ruboiy bor:

Adl aylaki, ul xalq hayoti bo'lmish,

Xush ul kishikim – adl sifoti bo'lmish.

Ham mulk bila adl sifoti bo'lmish,

Ham adl ila mulk saboti bo'lmish.

Alisher Navoiyning lirik merosi tarkibida masnaviy shaklida (a-a, b-b) qofiyalangan qit'alar ham uchraydi. Jumladan, na't ruhidagi quyidagi qit'a buning dalilidir:

Nukta asnosida Habibulloh

Dedi, alkasibu habibulloh.

Ma'ni aytur bu so'zga piri komil

Ki, so'zi erdi haq sari shomil.

G'araz ermas bu kasbdin dunyo,

Bal erur kasbdin murod fano.

Alisher Navoiy qit'alari o'zining yuksak ma'nodorligi, falsafiyligi bilangina emas, badiiy tomondan ham g'oyat nafis va mukammalligi bilan ajralib turadi. Mohir so'z san'atkori bo'lgan shoir lirik hissiyot hamda g'oyaviy-falsafiy qarashlarini to'laroq va mukammalroq ifodalashda, qit'alari ta'sir kuchini orttirishda talmeh, tajnis, tazod, mubolag'a san'atlaridan, xalq og'zaki ijodiyotidan ustalik bilan foydalanadi. Shu tariqa Navoiyning sa'y-harakatlari bilan takomillashgan qit'a o'zbek mumtoz she'riyatining yashovchan va hozirjavob janriga aylandi. Shoir an'analari keyingi asrlarda ham muvaffaqiyatli davom etdi. Qit'a janri namunalari har bir muallif yashagan davr voqeligini badiiy tasvirlovchi, axloqiy-falsafiy mazmun tashuvchi vositaga aylandi.

II BOB. MAZMUN VA BADIYYAT MUAMMOLARI

1-fasl. Mavzular ko'lam, g'oya va badiyyat

Ulug' shoir va mutafakkir Alisher Navoiy boshqa lirik janrlar qatorida o'z qit'alari matniga ham yanada sayqal berdi, o'z qarash hamda fikrlarini unga singdirishga erishdi. Aksariyat qit'alarining qobig'i diniy-ilohiy bo'lsa-da, ularning asosiy mag'zini insonparvarlik, kishilik jamiyatining foydasi, manfaati, turmush tarzini himoya qiluvchi ilg'or fikrlar tashkil etadi. Shuning uchun ham har bir qit'a ma'naviy barkamol shaxsni tarbiyalash, jamiyatni taraqqiyot sari yetaklashda g'oyat muhim manba sifatida yashab kelmoqda. Qit'aning mavzular ko'lam hayotning o'zidek keng va tarmoqlidir. Shu jihatdan Sharq lirikasidagi birorta lirik janr qit'aga tenglasha olmaydi. Unda ijtimoiy-siyosiy, falsafiy, axloqiy-ta'limiy va ishqiy masalalar ifodalangan. Bu janrda shoirlar hayot zavqi, umtd va ishonch, insoniylikni ulug'lash, odob va tarbiya masalalari, e'tiqod va burch, el va yurtga muhabbat, so'fiyona kayfiyatlar, zamondan shikoyat va boshqa qator mavzularni qalamga olganlar. Shuningdek, bu janrda madhiyalar, marsiyalar hamda tarixlar aks ettirilgan.

Alisher Navoiy qit'alarida tabiatdagi oddiy qurg'oqchilikdan tortib, koinot sirlarigacha, chumolidan tortib inson va uning turli ruhiy holatlarigacha munosabat bildirilgan.

Lirik tur haqida gap ketganda lirik janrlarning imkoniyat doirasi, bir-biridan farq qiluvchi janr xususiyatlari, uslubiy jihatlari, lirik obrazlar masalasi, g'oyaviy-falsafiy xususiyatlarini tahlil etish, tushuntirish talab etiladi. Mumtoz so'z san'atkorlari badiiy ijodga qo'l urib, lirik obrazlar yaratayotganlarida ularga turli tabaqalar vakillarining psixologiyasi, turish-turmushini yaxshi bilganliklari qo'l keladi. Natijada lirik obraz va xarakterlar hayotiyliigi, qo'llangan poetik san'atlarning tabiiyligi ta'minlanadi. Bunda shoir mavjud voqelik, unda yashab turgan odamlarning qarashlari, ma'naviyati, saviyasi va qiziqishlariga suyanadi.

SHu zaylda davr va sharoitga qarab, poetik obrazlar mundarijasi o'zgarib, boyib boradi yoki ba'zilar o'rnini boshqalari egallaydi. Demak shoir yaratgan obrazlar o'sha davr ijtimoiy-siyosiy, ruhiy-ma'naviy masalalarining ko'zgusi ham hisoblanadi. Lutfiy, Navoiy, Bobur, Ogahiy va boshqa bir qator ta'lim tizimida o'rganish uchun ijodidan namunalar kiritilgan ijodkorlar nihoyatda murakkab tarixiy sharoitda, turli xil ziddiyatlar to'lib toshgan davrlarda yashab ijod etdilar. Ayniqsa, Navoiy, Bobur va Ogahiy o'zlari ham yirik davlat arbobi bo'lganliklaridan ana shunday ziddiyat va nifoqlarning ichida yashashga, ularni bartaraf etishga bor kuch-g'ayratlarini sarflashga majbur edilar. Ana shunday ziddiyatlar shoir sifatida ham ularni behalovat qilib, yangi-yangi asarlar yaratishga, amalda hal etib bo'lmaydigan muammolar yechimini badiiy ijodda topishga olib kelar edi. SHu tariqa shoirlarning lirik obrazlari tizimi ham tobora kengaydi. Bunday lirik obrazlar zimmasiga yuklanadigan vazifalar salmog'i ham ortib bordi.

Alisher Navoiy g'azallarining umumbashariy g'oyalar tashishi, lirik obrazlarning mukammalligi, xarakterlarning hayotiyliги shoirni o'z davri an'analari dan yuqori ko'targan xususiyatlardan biridir. Ulug' shoir ko'plab salaf lari, zamondoshlaridan farqli ravishda, lirik obrazlarning tashqi portretiga oro beribgina qolmasdan, ularning ruhiy-ma'naviy olamiga ham yo'l ochdi. Bir so'z bilan aytganda, shoir yaratgan lirik obrazlar muallifning yuksak ideallarini tashish bilan birga, hayotga juda yaqin keldilar va she'riyat muxlislarining ko'ngil mulkiga aylandilar.

Zahiriddin Muhammad Bobur esa o'zi toj dor va mashhur sarkarda bo'lishiga qaramasdan ona yurt dan yiroqda, g'urbatda yashab, oddiy inson sifatida umr bo'yi afsus-nadomatda yashashga majbur bo'ldi. Natijada uning ijodida hasbi hol deb nomlanuvchi biografik xususiyatlarning lirik she'rlarda aks etishi kuchaydi. Natijada shoirning lirik she'rlari hayotiylik va reallik kasb eta bordi.

Lirik obrazlar haqida gapirganda, ularning shoirlar tomonidan she'riyatga olib kirilishi borasida fikr yuritganda faqat ijtimoiy-siyosiy voqelik masalasi bilan cheklanib qolish unchalik to'g'ri emas deb o'ylaymiz. Donishmandlardan birining

“ tashbeh qo'llashda mohir bo'lgan shoir jahongirroq bo'ladi”, degan fikrlarini lirik obraz yaratish masalasiga ham tatbiq etish mumkin. Alisher Navoiy o'zigacha mavjud bo'lgan lirik obrazlar hamda an'anaviy badiiy san'atlar bilan cheklanib qolganida bu qadar “jahongir” bo'lolmasdi. Shoirning o'zi ham aytganidek:

***Ani nazm etki tarhi toza bo'lg'ay,
Ulusqa mayli beandoza bo'lg'ay.
...Hamul yerda emas gul istamak xo'b,
Bu bo'ston sahnida gul ko'p, chaman ko'p...
("Farhod va Shirin" dostoni muqaddimasidan).***

Mumtoz she'riyatimizdagi obrazlar g'oyat xilma-xil. Ulardan eng asosiylari: shoh va gado, raqib, yor, oshiq, ma'shuq, may, gul, bulbul, do'st va boshqalar. Buning ustiga har bir obraz shoir taxayyulining turli qirralarini, g'oyalarini, qarashlarini, munosabatini ifodalashiga qarab yana turli ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Fikrimizni birgina misol bilan asoslamqchimiz. O'tmish shoirlar ijodida **it** obrazi oshiqning ruhiy holati, iztiroblarini, kechinmalarini badiiy ifodalashda keng muomalaga kiritilgan. Mumtoz adabiyot namunalarida ana shu obraz ishtirok etgan yuzlab g'azallar borki, bu shoirlarning obraz yaratish mahoratini belgilashda muhim ahamiyatga ega. Qisqasi, mumtoz adabiyotimiz tarixida it obrazi, asosan, vafo va sadoqat ramziga aylangan. Alisher Navoiy bir o'rinda it obrazidan boshqa bir mazmun va lirik g'oya ifodasida foydalanadi:

***Tangriliq bo'lg'ay raqibni majlisingdan quvlasang,
Hayf erur xud odami it birla bo'lsa oshnoyi.***

Raqib – oshiqning doimiy dushmani. Yor majlisida raqibga joy bo'lmasligi kerak. Odamlar davrasida itning bo'lishi ajablanarli bo'lganidek, oshiqning yonida raqibning o'tirishi ham ana shunday hol. Shu ma'noda sadoqat va vafo timsoli bo'lgan it bu safar raqibning timsoliga aylanadi.

Ayniqsa, Alisher Navoiy ijodi hayotni shu qadar keng, shu qadar teran qamrab olganki, uning lirik qahramoni o'z davrining ko'zgusi desak, mubolag'a bo'lmaydi. "...Navoiy lirik qahramoni bilan o'zbek adabiyotining bironta lirik shoiri lirik qahramoni o'z muhitini keng va chuqur qamrab olish sohasida tenglasha olmaydi. O'zbek lirik qahramoni Navoiy lirikasi misolida o'zigacha bo'lgan lirikaning eng yuqori bosqichiga ko'tarildi" – deydi adabiyotshunos Ummat To'ychiev.¹⁰ Olimning bu fikrlarini Alisher Navoiyning lirik obrazlar yaratish borasidagi mahoratiga nisbatan ham qo'llash mumkin.

Sharq mumtoz she'riyatining obrazlar olami g'oyat rang-barang. **May** obrazi, **yor**, **oshiq**, **ma'shuq** obrazlari, **do'st** va **raqib**, **gul** va **tikan**, **bulbul** va **zog'** timsollari va hokazo. Biz atayin ularning xarakteri va mazmun-mohiyatiga ko'ra qarshilantirib sanamoqdamiz. Darhaqiqat, adabiy obraz hamda timsollarga kurashchanlik xos, ezgulik bor joyda yovuzlik ham hukm suradi. Do'st bilan birga yonma-yon raqib ham nafas oladi. Bulbulning bulbulligini zog'lar borligi uchun chuqurroq his qilsak, qadrlasak ajab emas. Qolaversa, Gulga yetishmoq uchun Tikan bilan kurashmog'imiz, yoki u yetkazgan aziyatlarga bardosh bermog'imiz talab etiladi. Ehtimol, adabiyotning hayot bilan chambarchas bog'liqligi va abadiyatga daxldorligini ham mana shu xususiyatlar ta'minlase kerak. Har bir shoir ijodida ayrim obraz bo'rtibroq ko'rinadi. Aytaylik, Umar Xayyom ruboiylarida *May* timsoli yetakchilik qilsa, Zahiriddin Muhammad Bobur she'riyatida *Vatan* timsoli bor bo'yi bilan ko'zga tashlanib turadi.

O'z yerni qo'yib Hind sori yuzlandim,

Yo rab, netayin, ne yuz qarolig' bo'ldi!

singari dard va alamlarga to'la misralar necha asrdan buyon qalblarni larzaga keltirib, ko'ngillarda Vatan shukronasining shakllanishiga xizmat qilib kelayotgani ham bejiz emas.

Ma'lumki, mumtoz adabiyot janrlari, xususan, qit'a asrlar davomida shakllangan va o'z takomiliga erishgan. Oldingi fasllarda keltirilgan nazariy qarashlarning tahliliga ko'ra, har qanday she'r qit'a bo'lavermaydi. Biror she'riy

¹⁰ To'ychiev U. Adabiy turlar va janrlar. T.: "Fan" nashriyoti. 1992. B. 128

asarni qit'a deb atash uchun unda tugal mazmun, muayyan shakli bo'lishidan tashqari, axloqiy-falsafiy xulosa ham bo'lishi kerak. She'r qanchalik chuqur ma'no va go'zal shaklga ega bo'lmasin, agar u qit'aning maxsus talablariga javob bera olmasa, u qit'a bo'la olmaydi.

Bu mo''jaz janr o'zining xalqchilligi va imkoniyatlarining kengligi bilan nafaqat shoirlar, balki mutafakkirlarni ham o'ziga jalb etgan. Lekin ularning qit'alarida tuyg'uga nisbatan tafakkur ustunlik qiladi. Jumladan ba'zi manbalarda Sharqda "muallimi soniy" (ikkinchi muallim) nomi bilan shuhrat qozongan qomusiy olim Abu Nasr Forobiyning ham qit'a janrida qalam tebratganligi xususida ma'lumot beriladi.

Albatta, qit'aning shakl nuqtai nazaridan qat'iy talablari, nozik jihatlari bo'lishi bilan birga, o'z imkoniyatlari, qulayliklari ham bor: bir necha qofiya ko'rinishi bir qit'a doirasida o'rin almashib kelishi ham mumkin. Bu mazmunga ta'sir qilmaydigina emas, bir musiqiy ohang, mushtarak she'riy ruh atrofida aylangani uchun ritmni ham aytarli o'zgartirmaydi.

Bir shoir tomonidan bir xildagi mavzuning bir necha lirik janrlarda qalamga olinishini chog'ishtirish ham janrlar imkoniyatlari, o'ziga xos xususiyatlarini oydinlashtirishda qo'l keladi. Shu yo'l bilan ham har bir lirik janr tabiati, ifoda imkoniyati va xarakterini asoslash mumkin. Ayniqsa, daho so'z san'atkori Alisher Navoiyning keng ko'lamli va boy ijodiy merosidan bu masalani yoritish uchun istagancha misol keltirsa bo'ladi. Qizig'i shundaki, bitta mavzu va g'oyaning ifoda yo'suni turli janrlarda turli ko'rinishlarga – ba'zan lirik-falsafiy, ba'zan axloqiy-didaktik, gohida esa lirik xulosa tarziga ega bo'ladi.

Hirs va ta'maga, dunyoparastlikka qarshi kurashishga da'vat Alisher Navoiyning axloqiy-ma'naviy g'oyalariga mos keladi. Bu mavzu va g'oya shoirning nafaqat lirik, balki epik va boshqa turdagi asarlarida ham asosiy masalalardan biridir. Endi ana shu mavzu va g'oyaning turli janrlardagi ifodasi talqiniga o'tamiz. Shoir g'azallaridan birida shunday yozadi:

Tori ummid aro harisni bil –

Rishtai ankabut ichinda magas.

“G’aroyib-us sig’ar” devoni. 235-g’azal.

Haris – ya’ni hirsga berilgan bandalar, nafs quli bo’lgan kimsalar obrazli tarzda o’rgimchak to’rlariga o’ralib qolgan hasharotga tashbeh etilmoqda. Faqat farq shundaki, hasharot yoki pashsha ongsizligi tufayli beixtiyor tuzoqqa tushadi. Mol-dunyo hirsidagi kishilar esa o’z ta’magirliklari orqasida ixtiyoriy ravishda hoyu-havas girdobida qoladilar. Ko’rinadiki, g’azal janri tabiati ko’proq obrazlilikni, majozni, turli-tuman badiiy vositalarni o’rinli qo’llashni taqozo etadi. Axloqiy-pandnoma xarakteridagi masalalarni g’azalda to’g’ridan-to’g’ri ifodalab bo’lmaydi. Aks holda bunday asar she’rxonga estetik zavq bermaydi, uni zeriktiradi. Lirik g’oyaning ta’sirchanligini oshirish uchun g’azalda qo’yilayotgan masalani o’quvchi shuuriga obrazli yetkazish talab etiladi. Demakki, g’azal mazmun-mohiyatini to’g’ri anglash she’rxondan muayyan tayyorgarlikni talab qiladi. O’z-o’zidan, g’azal janridagi she’rlarni mutolaa qiluvchi she’rxonlar safi torayadi.

Endi xuddi shu mavzuning qit’a janrida aks etishini kuzatamiz. “G’aroyib-us sig’ar” devonidan o’rin olgan 22-qit’a quyidagicha nomlanadi: *“Takalluf ahlining dunyog’a sheftalg’ida va dunyolikka fireftalig’ida”*:

Tanni zarbaft aylabon xiffatdin uchqon har taraf

Yo’q ajab gar bor esa dunyo matoi kom anga.

Ul chibinkim, ko’zga oltun yanglig’ ishnor xil’ati

Ko’praki bilkim, najosat uzradir orom anga.

Ushbu qit’ada ham g’azaldagi mavzu saqlab qolingani. Navoiyning ijodiy ixtirolaridan bo’lmish qit’aning sarlavhasi she’rxon diqqatini qo’yilayotgan masalaga yo’naltiradi. “Dunyo matoyi komi”ga aylangan kishilar usti yaltiroq, ammo turli iflosliklardan hazar qilmoqchi chibin – pashshalarga o’xshatilmoqda. Demak, qit’ada ko’p ma’nolilik bo’lmasligiga harakat qilinadi. Fikr ifodasi lo’ndalashadi.

Shoir ruboiylaridan birida ham bu masala quyidagicha qo’yiladi:

Hirs havosini nafs havosi bilgil,

Qo'ymoq ani nafs muddaosi bilgil.

Nafsingga alam hirs balosi bilgil,

Kechmoq mundin aning davosi bilgil.

Ruboiyda lirik qahramon ko'proq donishmand, hayotning achchiqchuchugini totgan mutafakkir sifatida namoyon bo'lmoqda. Pandnoma ruhi kuchayib, olg'a surilayotgan g'oya ikkinchi shaxsga murojaat tarzida etkazilmoqda. Ruboiyning ixcham shakli fikr va tuyg'ularning lo'nda hamda tushunarli ifodalanishini taqozo qilmoqda.

Mavzuga aloqador yana bir misol: tilni noo'rin gap-so'zlardan tiya bilish, til orqasidan birovga ozor bermaslik haqidagi o'gitlar, til tufayli boshga keluvchi kulfatlar haqidagi falsafiy-axloqiy qarashlar Sharq didaktik adabiyotida keng ishlangan mavzulardan biridir.

Ulug' shoir va mutafakkir lirik merosining har bir janrida bu mavzuga turli yo'sinda va qayta-qayta murojaat qilingan. Shoirning g'azallaridan birida shunday baytlar bor:

Pok lafz ayturg'a og'zing pok qilg'ilkim, hayfdur,

Yaxshi so'z borida so'rg'ay nuktai mazmum og'iz...

Ey Navoiy maxlas istar bo'lsang el til, og'zidin,

Nazmdin ham tilni tiyg'il, nasrdin ham yum og'iz.

“G'aroyib-us sig'ar” devoni. 220-g'azal.

Mazkur g'azalda pok lafz aytish e'tiqod darajasiga ko'tarilib, lirik qahramon turli ko'rgiliklardan xalos bo'lmoq uchun og'zini yummog'i – kerak paytda sukut saqlash ham fazilat ekanligi bayon etilmoqda. Axloqiy-ta'limiy g'oya lirik kechinma va tuyg'ular bilan hamohanglikda badiiy bo'yoqlarda ifodalanayotir. Quyidagi misolda buni yanada yaqqolroq ko'rish mumkin.

“Oz so'z demakning manfaatida va ko'p so'zning mazarratida”:

Navoiy, tiling asrag'il zinhor,

Desangkim, emay dahr ishidin fusus.

***Nazar qilki, o'q og'zi tilsiz uchun
Qilur tojvarlar bila dastbo's.***

***Necha tojvardur kesarlar boshin
Chu hangomsiz nag'ma tortar xurus.***

“G'aroyib-us sig'ar” devoni. 21-qit'a.

Mazkur qit'ada didaktik xulosa avval aytilmoqda. Keyin kamon o'qi timsoli majoziy ma'noda keltirilib, bu o'q tili yo'q bo'lganligi uchun shohlar qo'lini “o'pishga” musharraf bo'lishi aytilmoqda. Birinchi obrazli misolda tilsizlikning foydali jihatlari ko'rsatilib, unga parallel ravishda bo'lar-bo'lmasga “Nag'ma” tortishi – qichqiraverishi natijasida boshi kesiladigan xo'roz fojeasi obrazli bayon etilmoqda. Qit'aga xalqning mashhur “Til yugurigi – boshga” maqoli mahorat bilan singdirib yuborilgan.

Mumtoz she'riy asarlarda fikr shunchaki bayon qilinmasligi, ularning aksariyati, xususan, diniy-tasavvufiy namunalarda ramz va majoz yetakchi bo'lishi, biz yuqorida sanab, tahlil qilgan lirik obrazlar zohiriy va botiniy ma'no qatlamlarida o'ziga xos mazmun, mohiyat kasb etishi, qolaversa, aruz she'r tizimiga xos nozik ohanglar tovlanishi mumtoz she'riy asarlarni o'rgatishda alohida mas'uliyat yuklaydi. Ana shu xususiyatlarni hamisha yodda tutish yosh avlodni mumtoz adabiyotimiz namunalaridan to'laqonli bahra olishlariga sabab bo'ladi.

Ko'rinadiki, qit'a janrida qalamga olinayotgan mavzu, nazarda tutilgan falsafiy g'oya, ifoda tarzi o'ziga xosdir. Bu esa mazkur lirik janrning boshqa she'riy shakllardan farqlab turuvchi xususiyatlarini belgilaydi. SHuning uchun ham ulug' shoir va mutafakkir hayotiy voqea-hodisalardan badiiy umumlashmalar chiqarishda, falsafiy xulosalarga kelishda hamda axloqiy-ma'rifiy qarashlari ifodasida qit'aga qayta-qayta murojaat qilgan.

2-fasl. Ijtimoiy-falsafiy qarashlar ifodasi

Vatanimiz mustaqillikka erishguncha o'tgan davrlarda adabiy-madaniy merosimizga, ma'naviy qadriyatlarimizga biryoqlama munosabatda bo'lindi. Natijada ajdodlarimiz qoldirgan bebaho va ulkan adabiy-madaniy boyliklarni talqin va tadqiq etishda ayrim cheklovlar yuzaga keldi. Ayniqsa, diniy-tasavvufiy xarakterda bo'lgan asarlar mutlaqo nazardan chetda qoldi. Tilga olinganlari ham kommunistik mafkuraga xos bo'lgan "sinfiylik" nuqtai nazaridan tahlil qilindi, kerak bo'lsa qoralandi.

Vaholanki, islomiyatning ilk davridayoq kurtak yozib, keyinchalik mukammal ta'limot bo'lib shakllangan tasavvuf hozirgacha musulmon mamlakatlarida keng tarqalgan va butun dunyoda mashhur bo'lgan ta'limotdir. Bu ta'limot vositasida insoniyat islom dinining zohiriy va botiniy go'zalligini, buyuk insonparvarlik mohiyatini anglab yetdi. Tasavvuf, avvalo, ruh tarbiyasi, ma'naviyat, tafakkur, jismoniyat uyg'unligi haqidagi ta'limotdir. Tasavvufning bosh g'oyasi komil insonni tarbiyalashdir. Komil inson deganda ruhan pok, ma'nan yuksak inson tushuniladi. Shuning uchun ham o'zbek mumtoz adabiyoti namoyandalari vahdat, komillik masalalariga ko'p marta murojaat qilganlar.

Alisher Navoiy mashhur qit'alaridan birida aytadi:

Kamol et kasbkim, olam uyidin

Senga farz o'lmag'ay g'amnok chiqmoq.

Jahondin notamom o'tmak biaynih

Erur hammomdin nopok chiqmoq.

Bobokalonimiz shu to'rt satri bilan olam-olam ma'nolarni ifodalab, eng sharif mavjudot – Insonni kamolotga erishishga da'vat etgan. Darhaqiqat, qisqa umr davomida kamolotga intilgan, vaqtini zoe ketkazmagan odam bu dunyoga

kelganidan pushaymon bo'lmaydi. U o'zining ichki imkoniyatlari, ma'naviy olami qirralarini namoyon etib, barkamollik sari yuz tutadi.

Komil inson, shu tariqa, mumtoz adabiy merosimizning yetakchi obraziga, asosiy qahramoniga aylanadi. Uning orzu-armonlari, intilishlari, kurashlari, dardi, tashvishi, mavjud olam haqidagi tasavvurlari so'z san'atkorlari ijodida badiiy tadqiq ob'ektiga asos bo'lib xizmat qiladi. Ulug' ajdodlarimiz o'z davri qarashlari va tushunchalari asosida Insonni ulug'lar ekanlar, tasavvuf tariqati bu borada ularga eng qulay vosita bo'ldi. Chunki tasavvuf, uning ilohiy va dunyoviy g'oyalari o'z zamonasining peshqadamlari bo'lgan ijodkorlarning ilhom manbai, o'zlarining hur fikrlarini ifodalash vositasi bo'lganligi shubhasiz. Shu sababli ham o'tmish adiblari ijodidagi insonning ma'naviy-tarbiyaviy jihatdan barkamolligi lirikaning ham, epik asarlarning ham yetakchi g'oyalaridan biridir.

Modomiki, Inson Haq sirlarining mumtozi ekan, u turli illat va nuqsonlardan xoli bo'lmog'i lozim. Insonni insoniylikdan chiqaradigan, uni to'g'ri yo'ldan ozdirib, beburd qiladigan xususiyat – bu kibr va manmanlik, nafs hamda xudbinlikdir. Insonning o'zligini anglashi, ma'naviy barkamollik sari intilishi lozimligi mumtoz adabiyotimiz namunalarida batafsil yoritilgan. Lirik asarlarda esa Inson kamoloti g'oyasi tasavvuf tariqatida belgilangan so'nggi bosqich – Haq vasli bilan bog'lanadi. Lirik qahramon ma'lum doiradagi diniy e'tiqod bilangina cheklanib qolmaganligi uchun uning kechinmalari, tasavvur va tushunchalarini keng va atroflicha bayon etishga imkon tug'iladi. Chunki bosh maqsad Haqqa erishmoq ekan, komil inson bunga turli yo'llar orqali erishmog'i mumkin. Alisher Navoiyning ramziy ma'noda qanoat timsoli bo'lgan Anqo qushining yuksak tog'larda maskan tutishi, nafsini tiya olmaydigan tovuqning esa joyi katakda ekanligini ifodalovchi quyidagi qit'asi xarakterlidir.

“Qoni’ vasfidakim, “Alqanoatu kanzo’n loyufno” mazmuni bila amal qilur va har necha naf” topsa qanoat qilmas”

***Qanoat go'shasin tutqilki, chun Anqo bu da'b etti,
Anga qushlar ichinda qurb qofida nishiandur.***

***Chu parvori tovug'ning og'zi tinmas tu'madin garchi,
O'lar oxir anga avval katak zindoni maskandur.***

“G'aroyib-us sig'ar” devoni. 42-qit'a.

Qit'adan kelib chiqadigan g'oyaviy- falsafiy xulosa shuki, Inson qaysi din va mazhabda bo'lishidan qat'iy nazar Haq yo'lida komil bo'lishga intilsa, u qanoatli bo'lmog'i lozim.

Komillikka da'vogar inson kibru havodan, minnatdan, riyodan xoli bo'lmog'i lozim. Shundagina insonning ruhiy dunyosi poklanadi, haqiqiy ulug'vorlik kasb etadi. Tashqi ko'rinish va ziynatga berilish komillik va yetuklik belgisi bo'la olmaydi. Chunki qimmatbaho po'stin, ipak liboslar kiyib mag'rur bo'lish insonga yarashmaydi, chunki Tiyn (tulkiga o'xshash jonivor)ning qimmatbaho tukli terisi uchun uni o'ldiradilar, Farisa (patlari rango-rang qush)ning tovlanuvchi patlari uning o'z boshiga balo kelishiga sabab bo'ladi:

Kiyib samur ila kish qilma asru ra'noliq,

Ipak libos ila tutma g'urur jomi to'lo.

Tiynning o'z tuki-o'q bo'ldi jonig'a ofat,

Farisaning paridin keldi o'z boshig'a balo.

“G'aroyib-us sig'ar” devoni. 38-qit'a.

Xudbinlikni qoralash, samimiylik va o'zgalarga hurmat bilan qarashni yoqlash, kamtarinlikka undash orqali ham mumtoz adabiyotimiz namoyandalari odamlarni barkamollik kasb etishga da'vat etganlar. Hatto Islomda botil hisoblanib, qoralanuvchi butparastlik ham xudparastlik (egoizm) va manmanlik oldida gunoh sanalmay qoladi. Shoir fikricha, “xudparast (o'ziga bino qo'yish)likdan butparastlik yaxshiroq”dir.

Kimki o'zluk imoratin buzdi,

Bo'ldi naqdi fano aning muzdi.

Ul imoratni buzmay solik

Bo'la olmas bu naqdg'a molik.

“G'aroyib-us sig'ar” devoni. 41-qit'a.

Ya'ni, solik – Haq yo'lidagi so'fiy o'zlik imoratini buzmog'i, o'zligidan kechmog'i lozim bo'ladi, shundagina u fanolikka erishadi. Foniylar dunyodan voz kechish esa boqiylikka – Haq vasliga erishmoq demakdir.

Navoiy nazarida komillikning yana bir belgisi qanoatli bo'lmoqdir. Chunki qanoatli kishi yuqorida aytilgan kamchilik va qusurlardan osonroq qutuladi. Negaki, u boru yo'qqa sabr etadi, o'zining to'kis yashashi uchun boshqalarni zor qaqshatmaydi. Bechorahol yashasa-da, o'ziga to'qlarga hasad qilmaydi:

Boru yo'q mehnatin chekmas, bu davlat basdurur –

Har kishi olamda qone' bo'lsa yo'qu bor ila.

(“Navodir-ush shabob”, 522-g'azal)

Mumtoz so'z san'atkorlarining lirik she'rlarida komillikka da'vat etuvchi ma'naviy-axloqiy, tarbiyaviy ahamiyatga molik bo'lgan namunalar ko'plab topiladi. Ularni mutolaa etar ekanmiz, insonparvarlik ularning bosh maqsadiga, Inson yetakchi obrazga, uning barkamolligi esa asosiy g'oyaga aylanganini kuzatishimiz mumkin.

Shu tariqa tasavvufdagi komil inson konsepsiyasida ruhiy va ma'naviy barkamol shaxsni tarbiyalash birlamchi maqsad bo'lgan. Mazkur konsepsiyaning nazariy va amaliy asoslari diniy va ilmiy adabiyotlarda mukammal ishlab chiqilgan.

Ruhiy poklanish inson botinidagi illatlar yig'indisi bo'lmish nafsni yengish orqali yuzaga chiqadi. Nafsni yengish esa ma'naviy fazilatlar jamlanmasi bo'lmish ishq vositasida amalga oshiriladi.

Tasavvufda hayotning barcha sohalarida bo'lgani kabi ilmda ham asosiy e'tibor ishqni shakllantirishga qaratiladi. Ta'lim jarayonidagi ishq o'quvchi, talaba uchun ilmni ma'naviy ehtiyojga aylantirish tushuniladi. Bunda ishqni tarbiyalash uchun avvalo ilmga bo'lgan talabni shakllantirish zarur. Talab bu ilmga bo'lgan qiziqishdir. Talab dunyoni, o'zlikni bilishga intilishdan hosil bo'ladi. Inson

dunyoni, ilohiyotni anglash talabiga tushar ekan, tasavvuf unga eng avvalo o'zini bilishni taklif etadi. Alisher Navoiy aytganidek:

El netib topqay menikim, men o'zumni topmamon.

Tasavvuf talqinlariga ko'ra ishq va oshiqlik Haqqa intilishning, ma'rifatga shaydolikning oliy ko'rinishidir. Qolgan barcha hollarda soxtakorlik, riyo bo'lishi mumkin, ammo ishq va oshiqlikda bunday illat bo'lmaydi. Oltinni olov sinaganidek, bandani ham ilohiy ishq toblaydi, kamolot pillapoyalariga ko'taradi. Faqat ishq kishini abadiyatga, asl maqsadga eltadi.

Buyuk mutasavvif shoir va shayx Najmiddin Kubro hazratlari quyidagilarni aytganlar: “Ishq insonning yurak-bag'rini yondirguvchi bir otashdir. U aqlni shoshirtirar, ko'zni ko'r, quloqni kar aylar. Ammo eng ulkan qo'rquvlarni ham bartaraf etar. Butun diqqatni ma'shuqaga jalb etar...” Shu sababli inson olamda Yaratuvchining go'zalligini ko'rar va shu go'zallikni sevar. Olam esa Ollohning go'zalligidir. Agar Ollohn kim ayni shu nuqtai nazar bilan sevsa, olamni Olloh sevgisi bilan sevgan bo'lur.

Ishq-muhabbat tasavvufning asosiy ruknlaridan biri, g'oyaviy asosidir. Deyarli barcha irfoniy tushunchalar sharhi ishq-muhabbatga kelib taqaladi. Tasavvuf ta'limotining deyarli barcha namoyandalari tasavvuf ilohiy ilm haqidagi ilmdir, deya hukm chiqarganlar. Chunki tasavvuf ilohiy ma'rifatni egallash, Allohning sifat va ismlari orqali Uning zotini bilish va tanishni talab qilar ekan, buni aql va nazariy-tafakkuriy bilimlar bilan emas, balki botiniy tuyg'u, ya'ni muhabbat vositasida amalga oshirish mumkin deb ta'lim beradi. Alisher Navoiy ham g'azallaridan birida “Ishq ustodi oldida aql – tifli maktabdur”, ya'ni ishq shunday bilimdon murabbiyki, aql uning oldida maktab bolasiga aylanib qoladi, deya uqtiradi.

Shunday qilib, chinakam solik – bu oshiq solikdir, ishq ilohiy ma'rifatni kashf etuvchi qudrat, solik vujudini yondirib, mahbub visoliga yaqinlashtiradigan poklovchi muqaddas olov.

*“Husnning zoti istig'nosi sharhidakim, to shammae andin boqiydur,
ishq ahlig'a ajz va zabunliq muloqiydur*

***Tah-tah yurakim qon edi bir-bir sitamidin,
Ko'p-ko'p keluri chog'ida kelsa edi oz-oz.***

***Kech-kech keldi vaqtida ham rozi o'libmen,
Bot-bot kelurig'a qiladur anda dog'i noz".
"Badoe'-ul vasat" devoni. 7-qit'a***

Bundan tashqari, insonda ilohiylik bilan moddiylik birgalikda yashaydi. SHunday bo'lgach, inson ruhi o'z asli Mutlaq ruhga qarab tinimsiz ravishda harakatda bo'ladi, moddiy vujud bilan kurash olib boradi. Insonning Ilohga bo'lgan sig'inishi, muhabbatining boisi shu. Shu sababga ko'ra, muhabbat o'zlikdan voz kechib, dunyoviy orzu niyatlarni yo'qotish – mahv etishni talab qiladi. Boshqacha qilib aytganda, dunyo muhabbatidan ko'ngil uzmasdan Iloh muhabbatini qozonish mumkin emas. Dunyo muhabbatidan yuz o'girib, ilohiy ma'rifatni egallagan odam, nafsoniy sifatlardan yuz o'girib, ilohiy sifatlarni o'zlashtiradi.

***Himmat ahliki erur tuzluk aro sarv kabi,
Dahr bo'stonida sarsabzdur ozoda.***

***Ulki suv yanglig' erur past nihodu kajrav,
Chekib afg'on ang tinmaslig' erur omoda.
"G'aroyib-us sig'ar" devoni. 48-qit'a.***

Tasavvuf ta'limotining yetakchi tadqiqotchilaridan biri prof. Najmiddin Komilov komil inson tushunchasini quyidagicha bayon etadi: "Komil inson – insonlarning eng mukammali, eng oqili va eng donosi.

Komil inson iloh bilan odamlar o'rtasidagi vositachi, ilohiy amr, g'ayb asrorini oddiy odamlarga yetkazuvchi ulug' homiydir...

Komil inson insonlar jamiyati ichidan yetishib chiqadigan mo''tabar zotdir. U azaldan martabasi aniq bo'lgan ruh emas, balki axloqiy-ma'naviy poklanish jarayonida kamolga erishgandir.

Shuning uchun har bir pok axloqli, ilohsevqar shaxs komillikka intilishi va bu yo'lda nasiba olishi mumkin.

Komillikning oliy belgisi haq yo'lidan borib, xalqqa foyda keltirishdir. Kishi o'z so'zi, amaliy ishlari, niyati bilan qanchalik odamlarga naf keltirsa, yomonlarni to'g'ri yo'lga solsa, Haq yo'lida fido bo'lsa, u shuncha komildir".¹¹

¹¹ Komilov N. Komil inson – millat kelajagi

X U L O S A

O'zbek mumtoz adabiyotining eng yorqin namoyandasi bo'lgan Alisher Navoiy o'z ijodida Sharq adabiyotiga mansub bo'lgan deyarli barcha lirik janrlarda barakali ijod qildi. Ijodiy sermahsullik bilan yuksak ma'no va mazmunni, badiiylikni uyg'unlashtirdi. Shu bilan birga o'z davri ijtimoiy voqeligining barcha ko'rinish va qirraloarini lirik ifodalashga muyassar bo'ldi.

Alisher Navoiyning lirik merosi haqida so'z borganda ko'pincha, uning rasmiy lirik devonlari, xususan, "Xazoyin-ul maoniy" tarkibiga kirgan she'rlari nazarda tutiladi. Ammo shoirning lirik devonlariga kiritilgan she'rlaridan tashqari ilmiy-filologik, tarixiy va boshqa asarlari tarkibida ham ko'plab nazm namunalari mavjuddir. Xususan, qit'alar majmuasi bo'lgan "Arbain hadis" (qirq hadis) asari ham alohida mustaqil asar sifatida qaraladi. Bu asar deyarli ilmiy o'rganilmagani, tadqiqotchilarning diqqat markazida bo'lmaganligining sababi, bizningcha, asardan o'rin olgan qit'alarda ko'proq diniy-ilohiy mavzularning tarannum etilishidir. Mustaqillikka erishganimizdan so'ng shoir merosining to'laligicha xalqqa qaytarilayotgani bu boradagi ilmiy tekshirish ishlariga ham samarali turtki bermoqda.

Mumtoz adabiyotimiz namunalarini islom tarbiyasi, uning badiiy-estetik va insonparvarlik g'oyalari orqali o'rganish muhim ahamiyatga ega. Chunki ko'p asrlar islom dini ta'siri ostida hayot kechirgan xalqimiz tarixi, adabiyoti va madaniyatini busiz tasavvur qilish qiyin. Ilohiyot, ilmi hadis boshqa Sharq xalqlari qatorida o'zbek xalqining ham an'analari, turmush tarzi, axloq-odob haqidagi tushunchalari, ilmiy, adabiy merosiga singib ketgan. Shuning uchun ham shu xalq vakillari bo'lgan so'z san'atkorlari shularga tayanib ijod qilishi, ma'naviy-ma'rifiy qarashlarini bayon etishi tabiiy holdir. Shuning uchun ham Sharq xalqlari adabiyotida Islom ta'limoti hamda ilmi hadis asosidagi yoki ularning ta'siridagi bir qator badiiy asarlar, pandnomalar yaratilgan. Bu pandnomalar maktab va madrasalar dasturi doirasida yoshlar ongiga singdirilgan, ta'limiy-tarbiyaviy sohaga yo'naltirilgan.

Hadislarga tayanib, yoki ulardan ilhomlanib yaratilgan asarlardan tashqari Sharq adabiyotida bevosita hadislar asosidagi asarlarning maydonga kelishi ham xalqimizning ijtimoiy tafakkuri tarixidagi yorqin voqealardandir. Gap ulug' fors-tojik shoiri Abdurahmon Jomiy hamda uning do'sti va maslakdoshi Alisher Navoiylarning qit'a janrida yaratilgan she'rlari majmuasi - "Arbain hadis" asarlari ustida bormoqda. "Arbain" arabcha "qirq", "qirqlik" demakdir. Xalqimizda qirq bilan bog'liq ko'plab tasavvurlar, e'tiqod ko'rinishlari ham borki, bu mazkur mualliflar o'z asarlarini yaratayotganlarida milliy xususiyat, mahalliy koloritni ham nazardan qochirmaganliklarini ko'rsatadi. Bunday tipdagi asarlarning mualliflari Muhammad payg'ambarning "kimki ummatlarimga din xususida qirq hadisni yetkazsa, tangri taolo uni qiyomat kunida fiqh (huquq) bilimdonlari, olimlar to'dasiga qo'shadi" degan hadisini ham nazarda tutganlar. Alisher Navoiy hadislarni she'rga solar ekan, ular orasidan ma'naviy-axloqiy tarbiyaga yo'naltirilganlarini tanlab olgan va go'zal badiiy shaklda ifodalagan.

Nazmga solingan hadislarga yoki hadislardan ilhomlanib yaratilgan ijod namunalariga nazar solar ekanmiz, ularning mohiyat-mag'zida tinchlik, do'stlik, birodarlik, yaxshi qo'shnichilik, mehr-muhabbat, ota-onaga hurmat, yetimlar, beva-bechoralarga muruvvat va turmushning barcha jabhalariga donishmandona munosabat yotganligini ko'ramiz. Bu esa mualliflarning o'z asarlari kishilar qalbiga chuqurroq kirib borishi, keng yoyilishi hamda ularda olg'a surilgan g'oyalarga amal qilinishini istagan holda hayotiy va kundalik turmush bilan hamohanglarini tanlab olganliklarini ko'rsatadi.

Ulug' shoir va mutafakkir qalamiga mansub bo'lgan qit'a-she'rlar, asosan, diniy ahkomlar, toat-ibodat masalalarini qamrab olgan bo'lsa-da, ularda odob-axloqqa oid muhim pand-nasihatlar, kundalik turmush uchun zarur bo'lgan yo'riqnomalar ham targ'ib etiladi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, qit'alarida olg'a surilgan hayotbaxsh da'vat va g'oyalar keyinchalik shoirning "Xamsa" tarkibidagi dostonlarida, "Mahbub-ul qulub"da, "Lison-ut tayr" nomli falsafiy dostonida epik ko'lamda yanada chuqurroq va batafsilroq istifoda etiladi. Bu asarlarda kishilar o'rtasidagi o'zaro birodarlik, mehr-muhabbat, rahm –shafqat,

saxovat va oliyhimmatlik tushunchalari badiiy tarannum etiladi. Shuningdek, kibr va manmanlik, mol-dunyoga hirs qo'yish, baxillik, xudbinlik singari qusur va nuqsonlar ayovsiz tanqid tig'iga duchor qilinadi. Shuningdek, oila qurishda bo'lajak umr yo'ldoshi bilan qanday muomala-munosabatda bo'lish masalalariga ham e'tibor berilganki, bu shoir qit'alarining kundalik hayotimizda ham dasturiy ahamiyatini belgilaydi. Bu esa diniy va dunyoviy masalalar bir xilda ulug' shoir va mutafakkir ijodiy faoliyatida keng qamrovli o'rin tutganligi va ilhom bag'ishlaganidan dalolatdir.

Istiqlolgacha bo'lgan yaqin o'tmishda diniy e'tiqod tahqirlangani, islomiy ilmlar qatag'on qilingani, hadislarning ma'naviy-axloqiy tarbiyadagi o'rni tan olinmagani tufayli xalqimiz mazkur xazinadan ko'p yillar davomida bebahra yashadi. Istiqlol sharofati ila milliy-madaniy qadriyatlarimiz qatorida hadislar, diniy ta'limot va ular asosida yaratilgan asarlar ham yana yorug'lik ko'rdi. Buning yorqin misoli sifatida sahii hadislar to'laligicha va qayta-qayta nashr etilishi, islomiy qarashlar, diniy ruhdagi asarlar tadqiqi uchun ham keng yo'l ochilganligini ko'rsatish mumkin.

Bu esa, o'z navbatida, adabiyotimiz tarixida yangi ufqlarni ochdi. Barkamol avlod tarbiyasida, mustaqil mamlakatimizning munosib vorislarini yetishtirishda dunyoviy masalalar qatorida diniy qadriyatlar ham ham muhim vosita ekanligi yaqqol ko'zga tashlandi. Diniy qadriyatlar, hadislar asosidagi badiiy asarlarning mavzular ko'lami kengaydi, tarbiyaviy ahamiyati yanada oshdi. Hayotimizdagi, kundalik turmushimizdagi muammolar yechimida o'ziga xos kalit vazifasini o'tay boshladi.


Qit'a o'zbek mumtoz adabiyoti tarixida Alisher Navoiydan keyin ham salmoqli o'rin tutadi. Munis, Ogahiy, Amiriy, Avaz va boshqa shoirlarning devonlaridagi qit'alar bunga yaqqol misol bo'la oladi. Shu bilan birga, badiiy nasr, xotira asarlar, tarixga oid manbalarda ham qit'aning ko'plab namunalarini uchratamizki, bu ulug' shoir va mutafakkirning keyingi davr ijodkorlari uchun ham mazkur janr bo'yicha katta mahorat maktabi yaratganligidan dalolatdir.

Bitiruv-malakaviy ishimizga asosiy manba qilib olingan Alisher Navoiy qit'alari milliy mustaqilligimiz mafkurasini yoshlar ongiga singdirishda, ularda olg'a surilgan milliy va umumbashariy g'oyalar, axloqiy-falsafiy masalalarni targ'ib etishda, qolaversa, ulug' shoir va mutafakkir adabiy merosining nisbatan kam o'rganilgan qirralarini yoritishda o'ziga xos o'rin tutadi.


FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T.: Ma'naviyat. 2007.
2. Alisher Navoiy. Arbain. Asarlar. 15-jild. T.: 1968.
3. At-Termiziy. Shamoili Muhammadiyya. T.: Mehnat. 1991.
4. Abu Abdulloh Muhammad al-Buxoriy. Al-jomi' as-sahih. 1-1Y jildlar. T.: Qomuslar Bosh tahririyati. 1991-1992.
5. Boltaboev H. Mumtoz so'z qadri. T.: Adolat. 2006.
6. Valixo'jaev B. O'zbek adabiyotshunosligi tarixi. T.: "O'zbekiston. 1993
7. Jaloliddin Rumi. Hikmatlar. T.: "Fan". 2007
8. Jamol Kamol. Lirika. T.: "Fan" 1986.
9. Jo'raev H. Lirikada an'anaviylik va o'ziga xoslik. T.: 2004.
10. Karomatov H. Qur'on va o'zbek adabiyoti. T.: "Fan" 1993.
11. Komilov N. Tasavvuf. (1-kitob). T.: 1996.
12. Muhammad Huzariy. Nur-ul yaqin. T.: Kamalak. 1992.
13. Muhammad Al-Jazariy. Tasavvuf sirlari. T.: 1999.
14. Nosirov O. Va boshqalar. O'zbek klassik she'riyati janrlari. T.: 1978
15. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. T.: "O'qituvchi". 1980.
16. Sharq mumtoz poetikasi. (H. Boltaboev talqinida). T.: 2008.
17. Shukurov N. Adabiyotshunoslikka kirish. T.: 1982.
18. Qayumov A. Dilkusho takrorlar va ruhafzo ash'orlar. T.: 2011.
19. Qodirov V. Mumtoz adabiyot: O'qitish muammolari va yechimlar. T.: 2009.
20. Qosimov B. O'zbek adabiyoti va adabiy aloqalari tarixi. T.: 2008.
21. Xudoyberdizoda B. Ilmning darvozasi bo'lgan zot. "Farg'ona tamadduni". 2010 yil, 28 avgust.
22. Haqqul I. Abadiyat farzandlari. T.: 1990.
23. Haqqul I. Kamol et kasbkim. T.: "Fan" 1992.

1-ilova. Navoiy qit'alarining mavzular ko'lami



2-ilova. **Shoir qit’alaridagi muallif obrazi va u so’z yuritgan masalalar.**



3. Qit’aga berilgan ta’riflar

Qit’a arabcha so’z bo’lib, bo’lak, qism, parcha ma’nolarini anglatadi. Jumladan, arabshunos X.K. Baranov qit’ani 1) parcha (adabiy asar); 2) kichik she’r; 3) musiqa asari deb izohlaydi. U adabiy terminologiyada mumtoz poeziyaning lirik janrlaridan biridir.

Adabiyotshunos D. Quronov rahbarligida tayyorlanib, nashr etilgan “Adabiyotshunoslik lug’ati”da qit’a janriga ancha mukammal ta’rif berilgan. “Qit’a - (arabcha parcha, bo’lak, qism, bir kesim) Sharq mumtoz she’riyatida keng tarqalgan, ikki baytdan bir necha o’n baytgacha (ayrim manbalarda 19 baytgacha deb belgilangan) hajmdagi, juft misralari o’zaro qofiyalanib, toq misralari ochiq qoluvchi (b-a, v-a, g-a tarzida) she’r shakli; lirik janr. Garchi ko’proq ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-tarbiyaviy, falsafiy mavzularda yaratilsa-da, qit’a mazmun jihg’atdan ham, vazn jihatdan ham chegaralangan emas. Sharq adabiyotida nasriy asarlarda fikrni dalillash, xulosalash, izohlash kabi maqsadlarda qit’alar keltirilgan bo’lib, ular boshqa ijodkorlar olingan falsafiy jihatdan teran, didaktik xarakterga ega bo’lgan baytlar - parchalardir.

Professor A. Hayitmetov qit’a janri haqida shunday to’xtamga kelgan: “Qit’a fors-tojik va o’zbek adabiyotida qadim tarixga ega bo’lib, odatda biror voqea va hodisa munosabati bilan yaratilgan eksrompt (tayyorgarliksiz birdaniga aytilgan) she’rlarni eslatadi. Ular ko’pincha hayotiy yumor bilan sug’orilgan bo’lib, shoirning o’z davri turmushiga munosabatini ifodalaydi.”

.....

4. Alisher Navoiyning qit’a janriga kiritgan yangiliklari.

1. Qit’alarda taxallus qo’llanishi shart bo’lmagan. Biroq ayrim qit’alarda, xususan *7 baytdan ortiq bo’lgan qit’alarda shoir taxallusi ham kelishi mumkin:* Masalan Navoiyning:

Vajhi maosh uchun kishikim desa fikr etay,

Qismat rizosidin anga begonaliq kerak

deb boshlanuvchi 9 baytdan iborat qit'asi quyidagi taxallusli bayt bilan tamomlanadi:

Desang xalos o'lay borisidin Navoiydek,

Bexudlug'u may ichmaku devonalig' kerak.

Qit'alarda taxallus masalasini g'azaldagi singari bir qatorga qo'yib bo'lmaydi. Chunki bu janrda qit'a she'r boshida ham kelishi mumkin:

Ey Navoiy, kishiga berma ko'ngil,

Agar ul hurdir, yo'qsa pari.

Vasli naf'i buki chekkaysen jon,

O'lturur lek firoqi zarari.

.....

2. Har bir qit'aga sarlavha qo'yish ham Alisher Navoiyning ushbu janr takomiliga qo'shgan hissasi deyish mumkin. Masalan, shoir o'zining nopok va beburd ayrim erkaklardan pok va halol ayollarning ming bora afzalligi haqidagi qit'asiga shunday sarlavha qo'ygan:

“Pok ro' niso ta'rifidakim inson onsiz xolidur va oludavash rijolkim nursizlidan dajjoli bemisoldur:

Yuz tuman nopok erdin yaxshiroq

Pok xotunlar oyog'ining izi.

Lut o'g'lin ko'rkim soldi tiyralik,

Dinga nafs ilgida tab'i ojizi.

Dahr aro yoqti sayodat mash'alini

Pokravliqtin rasululloh qizi.”¹²

.....
¹² Alisher Navoiy. Xazoyin-ul maoniy. 738-bet.

.....

3. Kichik lirik janrlardan bo'lmish qit'a **miqdor jihatdan** ham Navoiy adabiy merosida salmoqli o'rin tutadi. Birgina "Xazoyin-ul maoniy"da shoirning 210 ta, "Devoni Foniyy"da 72 ta qit'a o'rin olgan. Bundan tashqari "Munshaot" (shoir maktublari majmuasi), "Holoti Pahlavon Muhammad", "Xamsat-ul mutahayyirin" va boshqa asarlarida ham shoirning bir talay qit'alariga duch kelamiz. Navoiy qit'alari ikki baytdan tortib o'n bir baytgachadir. Ularning asosiy qismi esa ikki baytni tashkil etadi. Qofiyalanish tartibi *ba, va, ga* va hokazo. Ular orasida masnaviyni eslatuvchi *aa, bb, vv* tarzida qofiyalanganlari ham uchraydi. Masalan:

***Kimki o'zluk imoratin buzdi,
Bo'ldi naqdi fano aning muzdi.
Ul imoratni buzmayin solik,
Bo'la olmas bu naqdga molik.***

4. Alisher Navoiy, yuqorida aytganimizdek, qit'alarni yaratish jarayonida o'ziga xos va mustaqil yo'l tutdi. Qit'alar mag'ziga singdirilgan ayrim falsafiy hikmatlarning dunyoviy mohiyatini kuchaytirdi, ba'zi o'rinlarda esa ilohiy-falsafiy jihatlariga urg'u berdi. SHuningdek, turkiy tilda so'zlashuvchi qatlamning dunyoqarashi, xohish-mayllarini ham inobatga oldi. Shu tariqa Alisher Navoiyning har bir qit'asini erkin ijodiy taxayyul va tafakkur mahsuli sifatida baholash maqsadga muvofiqdir.

M U N D A R I J A :

K i r i sh	3
1 BOB. Lirikada shakl va mazmun	
1-fasl. Qit'aning boshqa janrlar bilan munosabati.....	10
2-fasl. Qit'aning janr imkoniyatlari.....	18
II BOB. Mazmun va badiiyat	
1-fasl. Mavzular ko'lami, g'oya va badiiyat.....	28
2-fasl. Ijtimoiy-falsafiy qarashlar ifodasi.....	37
X u l o s a	44
Adabiyotlar ro'yxati.....	48
Slayd-ilovalar.....	49